

**-O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK 894.375

MIRZAEVA SHOXISTAXON ABDUVOHIDOVNA

**MILLIY UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTIDA
POETIK TURKUMLAR TASNIFI**

**5A111201 – O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik
darajasini olish uchun taqdim etilgan**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Andijon- 2014

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, mamlakatimiz hayotining turli sohalarida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ma'naviyatimiz, adabiyotimiz, tariximiz va milliy qadriyatlarimiz kabi inson ruhiyatini shakllantiradigan sohalar rivojlandi. Milliy adabiyotimiz va tariximizga munosabat yaxshilandi, millatning o'zligini aks ettiruvchi ma'naviy merosimiz tiklandi hamda ilmiy jihatdan o'rganila boshlandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida qayd etganlaridek: "...mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning amaliy natijasi o'laroq, adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo'lganini qayd etish joiz. Har qanday ijod namunasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi"¹.

Shu fikrlardan kelib chiqib aytish kerakki, o'zbek adabiyoti tarixini tadqiq etishda xolislik va ilmiylik asosiy mezon qilib olindi. O'zbek xalqi o'zining murakkab tarixiy taraqqiyotini bosib o'tdi. Ming yillardan buyon ne-neistilolar, ne-ne zulmlarni boshidan kechirmadi. Xalqning ozodligi va mustaqil davlat g'oyasi uchun kurash yo'lida ziyolilar hamisha yalovbardor bo'ldilar. O'zbek adabiyoti tarixining eng ziddiyatli, murakkab va ixtiloflarga to'la sahifalari ham o'n to'qqizinchi asr ikkinchi yarmi va yigirmanchi asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkiston o'lkasini rus chorizmi bosib olgan, ikkinchi tomondan xalq mahalliy zulm ostida edi. Zulm va istibdodga qarshi xalqdan yetuk ma'rifatparvar adiblar, shoirlar, pedagog-ziyolilar yetishib chiqdilar. Ularning faoliyati taz'yiqqa uchrab, sho'ro davrida asarlarini o'rganish ta'qiqlandi.

Yurtboshimiz bu haqda quyidagilarni aytib o'tgan edilar: "Ayni vaqtda ma'rifatparvar bobolarimiz — jadidchilikharakati namoyandalarining hayoti va ijodiga munosabat masalasida ko'p yillardan buyon davom etayotgan bahslarga oqilona chek qo'yib, ularning merosini xalqimizga qaytarish yo'lidagi amaliy,printsipial fikrlar ham aynan o'sha paytlarda ilgari surilgani shuborada muhim ahamiyatga ega bo'ldi"².

O'zbek adabiyotining uzoq asrlik tarixiga nazar tashlasak, undagi adabiy meros namunalari zamirida ilm, ziyo, ma'rifat, ezgulik g'oyalari targ'ibi turganining guvohi bo'lamiz. XIXasr II yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar shoir va adiblar, ziyolilarning ijodi va faoliyatining asosida ham ajdodlarimizdan yetib kelayotgan ilmu ma'rifatga sadoqat ustuvorlik kasb

¹Каримов И.А. Юсак маънавият —енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 1999.-14-б.

²Каримов И.А. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 1999. - 14-б.

etadi. Bu davrda yashagan xalq o'g'lonlari xalqqa ma'rifat berishni, milliy o'zlikni anglatishni, o'z tarixi va madaniyatini e'zozlash va qadrlashga o'rgatishni hayotlarining mazmuni deb bildilar. Ma'rifatparvar shoir va adiblar o'zlarining mutaqillik haqidagi g'oyalarini asarlarida, o'z faoliyatlarida namoyon etdilar. Bu haqda yurtboshimizning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi"¹.

Sharqda ilm-fan, madaniyat va san'atning gurkirab rivojlanish davrlari IX-X asrlar, ikkinchi taraqqiyot cho'qqisi XIV-XV asrlar deb belgilanadi. G'arbda ro'y bergan Frantsuz inqilobi millat tushunchasiga alohida urg'u berdi, uning Turkistonga yetib kelishi esa yuz yildan so'ng amalga oshdi².

Ma'rifat ulashish va milliy o'zlikni anglatishni bosh g'oya deb bilgan shoir va adiblar jamiyatning barcha sohalarida islohotlar o'tkazishni, yangiliklar kiritishni asosiy vazifa deb bildilar. Millat taraqqiyotining asosiy poydevori ilm va ma'rifat ekanini o'z asarlarida talqin etdilar. XIX asr II yarmida yashab ijod etgan Komil, Feruz, Ahmad Tabibiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Muhayyir, Ibrat, Almaiy, Kamiy, Anbar otin kabi ma'rifatparvar shoir va adiblar asarlarida zulm va istibdodni qoralash, ma'rifatga undash g'oyalari yetakchilik qildi. Ularning ezgu ishlarini davom ettirgan keyingi davr jadid namoyondalari esa nafaqat asarlarida, balki amaliy faoliyatlarida ham millat taraqqiyoti yo'lida kurashlari aks etdi. Jadid adiblar o'zidan avvalgi ma'rifatparvarlarning g'oyalarini ijodiy rivojlantirdilar, ularning asarlarida ilgari surilgan mavzularni yanada kengroq yoritdilar, jamiyat hayotida faolroq va shiddatliroq harakatlandilar. Ismoil Gaspirinskiy boshlab bergan millatni uyg'otish harakati Behbudiy, Abdulla Avloniy, Tavallo, Sirojiddin Sidqiy, Muhammadsharif So'fizoda, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi jadid ziyolilarining asosiy maslagi bo'ldi. G'oyaviy izdoshlik va hammaslaklik ma'rifatparvar adiblar ijodida yaqqol ko'rinadi. Bu davrda adabiyot maydonida paydo bo'lgan xoh she'riy, xoh nasriy, xoh publitsistik asarlarda ijodkorlar g'oyaviy qarashlari borasida o'zaro yakdilligi, badiiy obraz yaratishda ham bir-biriga yaqin mahoratga ega ekanini kuzatish mumkin. An'ana va ijodiy ta'sir natijasi o'laroq, davr adabiyotida bir necha turkumlarga birlashadigan she'riy asarlar dunyoga keldi. Mazkur she'riy asarlar ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan siyosiy voqealarni aks ettirar, xalq hayoti va turmush tarzini ro'y-rost tasvirlar edi. Adabiyotda asrlar davomida amalda bo'lib kelgan romantik metod o'rniga realistik metod yetakchilik

¹Кўрсатилган асар, 24-бет.

²Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. 5-б.

qildi. SHu bois ham ushbu davr adabiyotini xolis tadqiq etishda poetik turkumlar mavzusi va g'oyasi, obrazlar mohiyati, ijodkorning g'oyaviy-badiiy olamini o'rganish muhim hisoblanadi. Milliy uyg'onish davrida poetik turkumlar tasnifi masalasini ilmiy tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish tarixi. Milliy uyg'onish davri adabiyoti bo'yicha adabiyotshunoslikda asosan Istiqlol yillarida ilmiy izlanishlar olib borildi. Bu tadqiqotlarda Turkiston o'lkasidagi siyosiy, madaniy hayot, adabiyotdagi yangiliklar, adabiy tur va janrlar taraqqiyotidagi o'zgarishlar, badiiy obraz yaratishda mahorat, an'ana va yangilik, izdoshlik, ijodiy ta'sir kabi ko'plab masalalar o'rganildi. Adabiyotshunoslikdagi yirik olimlardan O.Sharafuddinov, B.Qosimov, Sh.Yusupov, A.Abdug'afurov, U.Normatov, N.Karimov, H.Boltaboev, U.Dolimov, N.Jabborovlar¹, shuningdek, O.To'laboev, N.Dovurboeva, O.Jo'raboev, M.Tojiboeva, D.Abdullaeva²kabi yosh adabiyotshunoslarning turli ko'lamdagi asarlari yuzaga keldi. Mazkur ilmiy asarlarning ayrim o'rinlarida milliy uyg'onish davri adabiyotida yaratilgan poetik turkumlar haqida bir-ikki ma'lumotlar qayd etiladi. Biroq, ularda poetik turkumlarning mavzusi, g'oyasi, badiiyati, tarixiy va adabiy ahamiyati to'g'risida maxsus to'xtalinmagan. Faqatgina filologiya fanlari nomzodi D.Abdullaevaning "O'zbek adabiyotida an'anaviy poetik turkumlar" nomli qo'llanmasi yuqoridagi mavzu bilan aloqador. Bizning mazkur tadqiqotimiz ana shu mavzuning tadrijiy davomi bo'lib, qo'llanmada qisqa qayd etilgan o'rinlarni batafsil o'rganishga va poetik turkumlarni tasniflash vazifalariga chuqurroq kirishdik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. XX asr adabiyotshunosligida ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish davri adabiyotida "poetik turkumlar" atamasi bo'lmay, ayrim adabiyotshunoslar tomonidan bu turdagi she'rlar guruhini "sikl" deb qayd etish kuzatiladi³. Mazkur she'rlar tahlilida ham sho'ro mafkurasining taz'iyqi va senzurasini sezilib turadi. Chunonchi, rus chorizmi orqali kirib kelgan voqealarga shoirlarning xayrixoh bo'lganliklari ta'kidlanar edi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, poetik turkumlar atamasini izohlash, bu turkumlarga birlashgan she'rlarning mazmunini, obrazlilik va mahorat masalasini mafkura bosimlaridan holi ravishda, shoirlarning o'z nuqtai nazarlarini to'g'ri tahlil qilishdan iboratdir.

¹Шарафуддинов О. Чўлпонни англаш. – Т., 1998.; Б.Қосимов ва бошқ.Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. 5-б.; Ш.Юсупов. Хуфия қатламлар. Т., 1999.; Шу муаллиф: Худоёрхон ва Фурқат. Т., 1999.; А.Абдуғафуров. Қалб қаъридаги қадриятлар. Т., 1998.; У.Норматов. "Ўтган кунлар" ҳайрати. Т., 1998.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.–Т.: Ўзбекистон, 2008.; Ҳ.Болтабоев. XX аср бошларидаги ўзбек адабиётшунослиги ва Фитрат ижоди. Т., 1997.; У.Долимов. Исҳоқхон Иброт. Т., Н.Жабборов. Фурқат ижодининг хорижда ўрганилиши. ДДА. Т., 2001.

²Тўлабоев О. Каримбек Камий ҳаёти ва ижодий фаолияти. НДА. Т., 2002.; Н.Довурбоева. Фитрат драматургияси. НДА. Т., 1999.; О.Жўрабоев. Ҳазиний ҳаёти ва ижоди. НДА. Т., 2003.; М.Тожибоева. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. НДА. Т., 1999.; Д.Абдуллаева. Ўзбек адабиётида анъанавий поэтик туркумлар. А., 2012.

³Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 5 ж. Т.: Фан, 1980.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqot markazida milliy uygʻonish davri adabiyotida anʼana boʻlgan poetik turkumlarni tasniflash va turkumlarga birlashadigan turli janrdagi sheʼriy asarlarni gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini qiyosiy tarzda tadqiq etish turadi. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur boʻladi:

- davr adabiyotida anʼana va yangilik masalalarini tahlil qilish;
- anʼanaviy poetik turkumlarni tasniflash masalasini tekshirish;
- poetik turkumlarning mavzu koʻlami va badiiyatini aniqlash;
- badiiy obrazlar olamini tahlil qilish;
- anʼanaviy obrazlarning oʻziga xosligini koʻrsatib berish;
- sheʼriy turkumlarda ijodkor poetik tafakkurining inʼikosi masalasini tahlil qilish;
- poetik turkumlarda uslub va mahorat masalasini tadqiq etish;
- poetik turkumlarda badiiy tilni tadqiq etish;
- individuallik va badiiy mahoratni tekshirish.

Tadqiqotning obʼekti. Ushbu tadqiqot markaziga XIX asr ikkinchi yarmidagi va XX asr boshlarida oʻzbek adabiyotida yaratilgan oʻzaro mavzusi, gʻoyasi va boshqa xususiyatlari bilan bir turkumga birlashadigan sheʼrlar qoʻyilgan.

Tadqiqotning predmeti. Poetik turkumlarni tasniflashtirish tamoyillarini tadqiq etish, asarlarni adabiyotshunoslik ilmi nuqtai nazaridan oʻrganish tadqiqotning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning manbai. Mazkur davrda ijod qilgan Komil, Feruz, Ahmad Tabibiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Muhayyir, Ibrat, Almaiy, Kamiy, Anbar otin, shuningdek, ayrim oʻrinlarda Abdulla Avloniy, Tavallo, Sirojiddin Sidqiy, Muhammadsharif Soʻfizoda, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulhamid Choʻlponlarning sheʼriy asarlari tadqiqot manbai hisoblanadi. Shoirarning mustaqillik yillarida nashr etilgan asarlari, saylanmalari, toʻplamlari manbaviy asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy-metodologik asosi va metodlari. Adabiyotshunoslik fanining qadimdan amalda boʻlib kelayotgan metodologiyasi, xususan, sharq va gʻarb tafakkuri tadrijidagi ilmiy asoslar, Istiqlol davrida erishilgan yutuqlar ishning metodologik asosini tashkil qiladi. Mavzuni tadqiq etishda sharq ilmidagi talqin nazariyasiga tayandik, shuningdek, borliqni anglashdagi falsafiy qonuniyatlarni koʻzda tutgan holda, dialektik, tarixiy-qiyosiy, germeneytik, analitik, sotsiologik, biografik metodlardan foydalandik.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada XX II yarmi va XX asr boshlaridagi oʻzbek adabiyoti, sheʼriyati, janrlar taraqqiyoti, adabiy hayot, anʼana va yangilik kabi bir qator masalalar yuzasidan maʼlumotlar keltirilgan. Oʻzbek adabiyoti tarixiy taraqqiyoti borasidagi fikrlarni salmoq jihatdan boyitadi. Ishning asosiy xulosalaridan quyidagi oʻrinlarda amaliy foydalanish mumkin:

- milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti bo'yicha darsliklar, monografiyalar, qo'llanmalar yaratishda;
- o'rta va o'rta maxsus, oliy ta'lim muassasalarida ushbu kurs bo'yicha ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tishda;
- seminar trening va boshqa mashg'ulotlar tashkil qilishda;
- mavzuga doir ma'naviyat soatlari matnini tayyorlashda;
- ma'naviyat va ma'rifat tadbirlarida, kechalar, stsenariylar, bahs-munozara, davra suhbatlari tayyorlashda;
- ilmiy va ommabop maqolalar tayyorlashda;
- radio va televideniya suhbatlar, tok-shoular tsenariysini tayyorlashda.

Tadqiqotning joriylanishi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti o'zbek adabiyoti kafedrasining 2012 yil 20 noyabrda 2-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va tasdiqdan o'tgan, 2013 yil, 2 yanvardagi universitet Ilmiy kengashi yig'ilishida tasdiqlangan. Magistrlik dissertatsiyasi 2014 yil, 9 aprelda O'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida ichki himoya muhokamasidan o'tgan hamda ochiq himoyaga tavsiya etilgan. Ishning asosiy mazmuni 2 ta ilmiy maqola va 6 ta tezisda o'z aksini topgan.

Tadqiqotning tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, har biri ikkitadan faslga ajratilgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 80 betni tashkil qiladi.

I BOB. DAVR ADABIYOTIDA AN'ANA VA YANGILIK

I.1. AN'ANAVIY POETIK TURKUMLARNI TASNIFLASH MASALASI

O'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyot bosqichlarining ma'lum davrlarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, shoiru adiblar o'zidan avvalgi ajdodlarining ijodiy izidan borib, ular ardoqlagan va kuylagan qadriyatlarni o'z asarlarida tasvir etadilar. Bunday izdoshlik va ijoddagi hamohanglik an'analarni yuzaga keltiradi. "An'ana va vorisiylik" xususida so'z borganda "hayotdagi o'zgarishlar o'z-o'zicha janr tabiatiga yangiliklar olib kirmasligi", "hamma gap hayot materialining badiiy talqinida, shoirning ijodiy nuqtai nazari qanday yondashishi va qay yo'sinda yoritishida. Shoirarning g'oyaviy-estetik maqsadi, ijodiy kontsepsiyasi va poetik mahoratiga bog'liq"¹.

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan milliy uyg'onish harakatining g'oyalari badiiy adabiyotda ham o'z aksini ko'rsatdi. Millatparvar shoirlar, ziyolilar o'zlarining g'oyalarini she'riyatda yangi shakl va uslubda mahorat bilan ifodaladilar. Ularning she'riyati an'anaviylikni ham, yangilikni ham o'zida aks ettirdi. Adabiy an'analar sharqda azaldan shakllanib kelgan. Adabiy an'ana o'tmish adabiyoti to'plagan ijodiy tajribalar qaymog'i, davrlar o'tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan qismi².

Bu davrda mumtoz adabiyot janrlarining xususiyatlari shakl va mazmun jihatidan takomillashgani, sifat e'tibori bilan o'zgargani, ayrim janrlarda sinkretizatsiya ro'y berganini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, jamiyatdagi keskin siyosiy o'zgarish va yangiliklar adabiyotda ham o'z aksini ko'rsatmay qolmaydi. Turkiston adabiy hayotida jahon tamadduni an'alarining ta'siri hamda uning o'ziga xos tadrijiy davomini ko'ramiz.

Lirikada shoir o'zini to'lqinlantirgan, atrofida ro'y berayotgan voqea va hodisalarga hissiy munosabatini obrazli aks ettirar ekan, asr boshlaridagi she'riyatimizda ham ijtimoiy hayot real tasvirlandi. Bir necha o'nlab shoirlarning bir mavzu, bir g'oya, bir yo'nalishda yozgan lirik asarlari o'zaro turkumlilikni tashkil etadi. O'z davri uchun an'anaga aylangan mavzular, obrazlar tizimi,

¹Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 1-ж. Лирика. – Т., 1991.- 234-б.

²Қурунов Д., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010. – 12-б.

g'oyalar mushtarakligi jihatidan bir turkumga uyushuvchi asarlarni "poetik turkumlar" deb atash maqsadga muvofiqdir.

"Poetika (yun. poietike techne – ijod san'ati) – keng ma'noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko'proq qo'llanilayotgan ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta'limot"¹. Xususiyy poetika "asarning badiiy o'ziga xosligini ochib berish, tavsiflash maqsadini ko'zlaydi", "asarlarning qurilishiga xos umumiy xususiyatlar, badiiy usul va vositalar tizimi nazarda tutiladi"². O'zbek tilining izohli lug'atida poetika quyidagicha yoritilgan: "Poetika adabiyot haqidagi fanning asarlar strukturasini, poetik shakllarni, poetik san'at usullarini o'rgatuvchi qism"³. Poetika mohiyatini anglash uchun badiiy asarning yaratilish jarayonini yodga olaylik. Ijodkor jamiyat bag'rida yashagani sababli turli kishilar, voqealar, yaxshi va yomon narsalarga duch keladi. Ijobiy idealni tasdiqlovchi, uning rivojiga turtki beruvchi narsalar yozuvchi muhabbatini qozonadi. Bunday narsalarni kishilarga singdirish, rivojlantirish va shu yo'l bilan ijobiy ideal tantanasini ta'minlashga harakat qiladi.

Yomon narsalar, salbiy xususiyatlar taraqqiyotimizga g'ov bo'ladi. Ular turli shaklga kirib, ishimizga xalal beradi. Bunday narsalar yozuvchi nafratiga uchraydi. Ijodkor ana shu yomon narsalarni inkor etish yo'li bilan ijobiy idealni tasdiqlaydi. Demak, hayotning o'zi ijodkor qo'lga qalam tutqazadi. U qo'lga olar ekan, o'quvchiga nimanidir aytmoqchi bo'ladi.

Yozuvchining o'quvchisiga aytmoqchi bo'lgan fikri asar g'oyasini tashkil qiladi. Badiiy asardagi barcha unsurlar g'oyaga bo'ysunadi, uning yorqin va zavqbxash ifodasiga xizmat qiladi. Chunki rassom uchun, olim uchun, publitsist uchun, felʼetonchi uchun, umuman, kim bo'lishidan qat'iy nazar, hamma uchun bitta muqaddas qoida bor: eng avvalo g'oya.

Navoiy badiiy asarda g'oyaning yetakchi ekanini shunday uqtirgan:

Ul kishi so'z bag'rida g'avvosdur,

Kim guhari ma'ni anga xosdir.

V.G.Belinskiyning uqtirishicha: "Go'zalning kulgusida ham, go'dakning yig'isida ham, daryoning shildirishida ham, sherning xirillashida ham g'oya bo'lishi kerak". Ijodkor g'oyani aniqlab olgach, uni qanday qilib kitobxonga yetkazish haqida bosh qotiradi, asar shakli haqida o'ylaydi. Poetika g'oyasi go'zal va zavqbxash tarzda ifoda qilishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Go'zal va zarur fikr o'ziga xos shakl topgandagina umrboqiy asar yuzaga keladi. Badiiy asarda nimani aytish, albatta muhim, ammo u badiiylik libosiga o'ralmasa, o'ziga xos shakl topmasa, yuksak asar bo'la olmaydi.

¹ Қуронов Д., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010. – 234.

² Ўша ерда.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-т. – М., 1980. 601-бет.

Alisher Navoiy shakl va mazmun munosabati haqida fikr bildirib, mazmun yetakchi ekanini ta'kidlagan holda shakl ham mazmunga monand bo'lmog'ini alohida uqtirgan edi:

Nazmda ham asl ancha ma'ni durur

Bo'lsin aning sur'ati har ne durur.

Demak, poetika g'oyani go'zal va zavqbxash ifoda etuvchi asosiy omildir. Badiiyatsiz adabiyot adabiyot emas, she'riyat she'riyat emas.

Poetika yaxlit poetik kategoriya bo'lsa-da, uni tashkil qiluvchi unsurlar mavjud. Poetika tarkibiga syujet kompozitsiya, janr, konflikt, til, badiiy tasvir vositalari, xullas, barcha "shakl qurollari" (M.Shayxzoda) kiradi. Badiiy asar poetikasini tahlili ana shu unsurlar vositasida olib boriladi.

Badiiy asar poetikasini tahlil qilish namunasini anglash uchun Navoiyning birgina bayti poetik xususiyatlarini ko'zdan kechiraylik.

Poetikani esa adabiyot nazariyasining asosiy xulosalariga tayangan holda poeziya foydalanadigan ifoda vositalari sistemasini o'rganadi", -deb yozadi, adabiyot nazariyasi va poetikaning vazifalar doirasini aniq chegaralib, ularning bir-biriga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Adabiyotshunos V.V.Vinogradov poetikani badiiy asarlarni yaratishning shakl, vosita va usullari, badiiy asarlarning struktura xillari va janrlari to'g'risidagi fan deb ko'rsatgan. L.I.Timofeev: "Poetika termini badiiy vositalar yig'indisini ifoda qiladi. Yozuvchi ana shular vositasida yaxlit badiiy shakl yaratadi, asar mazmunini ochishga erishadi", - deb uqtirgan.

Ko'rinadiki, badiiy jihatdan puxta, mavzusi va mazmuni, g'oyasi va uslubi jihatidan poetika talablariga muvofiq keladigan she'rlarni poetik turkumlar deb atash mumkin.

Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev bu davr adabiyoti haqida quyidagi mulohazalarini ilgari suradi: "O'zbek adabiyotida ma'rifatchilik yo'nalishi dastlab Komil va Donish ijodida bo'y ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Dilshod Barno, Anbar otin singari adiblar ijodida alohida g'oyaviy-estetik yo'nalish tusini oldi. Shu yo'sinda nafis so'z xalq turmushiga xizmat qildirildi. Mumtoz adabiyotimiz uchun badiiy so'zning estetik jilvasi, ya'ni adabiyotning o'zi maqsad edi"¹. Adabiyotshunos yangi o'zbek adabiyotining esa xalqqa ma'rifat tarqatish, uning hayotini yaxshilash maqsadiga erishishning vositasiga aylantirilganini ta'kidlab, "ma'rifatchilik adabiyoti iqtisodiy qoloqlik, ijtimoiy tanazzul, siyosiy boshbodoqlik, huquqiy tengsizlikdan qutulishning birdan bir yo'li sifatida ommaga ma'rifat tarqatishni ko'rdi. Agar mumtoz adabiyotning qahramoni komil inson bo'lsa, ma'rifatchilik adabiyotining qahramoni ma'rifatli shaxs edi", kabi salmoqli fikrlarini bildirgan.

¹Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.–179-бет.

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotida bir qancha poetik turkumlar maydonga keldi. Poetik turkumlarga tasniflashda quyidagi jihatlarga eʼtibor qilish zarur boʻladi:

1. Mavzu.
2. Ijtimoiy va badiiy gʻoya.
3. Sheʼriy asarning janri.
4. Badiiyati.
5. Obrazlari.

Bir mavzu, bir gʻoyaviy yoʻnalishda, turli adabiy janr va yoʻnalishda asarlar yozgan shoir va adiblarning jamiyat hayotiga munosabatda hamfikir, hammaslak va gʻoyaviy izdosh boʻlganliklaridan dalolat beradi. Adabiyotshunos D.Abdullaeva ushbu davrda yaratilgan poetik turkumlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Qoʻqon xonligining soʻnggi hukmdori Xudoyorxon va uning fojiali taqdiri haqidagi turkum.
2. 1898 yildagi Andijon qoʻzgʻoloni («Dukchi eshon voqeasi») mavzuidagi sheʼriy turkum.
3. Tovlamachi Viktor va Lyaxtinlarning iflos qilmishlarini fosh etuvchi hajviy turkum.
4. Andijon zilzilasi haqidagi turkum.
5. Oʻlkaga poezd kelishi haqidagi turkum.
6. Gimnaziya haqidagi maʼrifatparvarlik yoʻnalishidagi turkum.
7. “Pechʼ”, “Loy”, “Burga”, “Ot”, “Sigirim”, “Pashshalar” haqidagi yumoristik turkum.
8. Fonus haqidagi sheʼriy turkum.
9. Zamonadan shikoyat mavzusidagi sheʼriy turkum.
10. “Naylayin” radifli lirik asarlar turkumi¹.

Bizning kuzatishlarimiz natijasida quyidagi turkumlashni yana davom ettirish mumkin:

1. Saylov haqidagi poetik turkum.
2. Veksel mavzusidagi poetik turkum.
3. Sayohatnoma yoʻnalishidagi poetik turkum.
4. Qarz mavzusidagi poetik turkum.
5. Mardikorlik mavzusidagi poetik turkum.
6. Arava mavzusidagi poetik turkum.
7. Mamajon makaylik haqidagi poetik turkum.
8. Koʻsamen radifli poetik turkum.
9. Kalish va kovush haqidagi poetik turkum.
10. Sheʼriy maktublar boʻyicha poetik turkumlar.
11. Maktab mavzusidagi poetik turkumlar.

¹Абдуллаева Д. Ўзбек адабиётида анъанавий поэтик туркумлар. —Андижон, 2012. —3-бет.

Ushbu poetik turkumlar ijtimoiy hayotdagi voqealarni real, haqqoniy tasvirlaganligi bilan katta ahamiyatga egadir. Davr adabiyotida an'ana bo'lgan ushbu she'riy turkumlarning mavzusini quyidagicha belgilash mumkin: 1) ijtimoiy-siyosiy; 2) yumoristik; 3) lirik; 4) hajviy-tanqidiy.

Ijtimoiy hayotdagi voqealarning ma'rifatparvar va jadid shoirlar tomonidan hozirjaboblik bilan she'riy shaklda o'z fikrlarini bildirdilar. Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev "garchi ma'rifatchilik adabiyotining maqsadi, vazifalari, tasvir ob'ekti, mavzular ko'lami, qahramonlari o'zgargan bo'lsada, badiiy tasvir vositalari, ifoda yo'sinlari, tur va janrlari jihatidan mumtoz adabiyotdan juda ham uzoqlashib ketmaganligi, ma'rifatchilik adabiyoti yangi o'zbek adabiyotining ilkinchi bosqichi ekanligi, u ko'p asrlik milliy an'analar shaklidagi o'z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanib kelgan mumtoz adabiyot bilan tashqi jahoniy ta'sirlarga berilgan, to'lig'icha ijtimoiy yo'nalish kasb etgan jadid adabiyoti o'rtasida estetik ko'prik bo'lgan"ini aytib o'tadi. Darhaqiqat, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Anbar otin, Zoriy, Muhayyir, Ahmad Donish, Avaz O'tar asarlaridagi ma'rifat g'oyalari kelgusi bo'g'in avlodlarga jadidchilik yo'nalishi uchun zamin bo'ldi. Ularning fikru qarashlari, qalamga olgan adabiy mavzulari jadid adabiyotiga g'oyaviy asos bo'ldi. Shuningdek, ma'rifatparvarlik adabiyotining mumtoz adabiyotdan farqi bor. Buni adabiyotshunos quyidagicha asoslagan: "...mumtoz adabiyot asosan, alohida kishilar, xos tabaqa uchun yaratilib, uning ifoda tarzi ham shunga muvofiq edi. U keng ommaga mo'ljallanmagan, unga qaratilmagan adabiyot edi. Ma'rifatchilik adabiyoti, avval boshdan, ommaga mo'ljallangan bo'lib, uning ifoda yo'sinida soddalik, avomga tushunarlik ustuvorlik qilardi. Ma'rifatchilik xususiyati milliy adabiyotni ifoda tarzidan tortib, mazmun mohiyatiga qadar o'zgartirdi"¹. Ijtimoiy hayotdagi muammolar ko'payganligi bois adabiyotda ham shunday mavzularda bitilgan asarlar maydonga keldi. Davr adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchilik qilganini yana boshqa bir adabiyotshunoslar ham ta'kidlaydilar: "Furqat, Avaz, Muqimiy, Zavqiy, Nodim singari shoirlar ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qildilar. Keyinchalik ular safiga Hamza, Ayniy, Avloniy kabi ma'rifatparvarlar kirib keldilar"².

Poetik turkumlarga birlashadigan she'rlar turli janrlarda bo'lib, yetakchi shakli g'azaldir. Bir turkumga mansub, lekin janri va boshqa xususiyatlari bilan farqlanuvchi she'rlar ham bor.

Ma'rifatparvar shoirlarning aksariyati realizm metodida ijod qildilar. Bu poetik turkumlarda tarixiy shaxslar, joylar nomlari, real hayotda bo'lib o'tgan voqealar bayon etiladi. Ularda o'lkaga kirib kelgan yangi iqtisodiy munosabatlar, chorizm istibdodining ayanchli oqibatlari va adolatsiz siyosati, oddiy xalqning ikki taraflama zulm ostida qolgani tasvirlanadi.

¹Йўлдошев Қ. Ўзбек маърифатчилиқ адабиёти. / Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 179-б.

²Носиров О. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. 57-58-бетлар.

I.2. POETIK TURKUMLARNING MAVZU KO'LAMI VA BADIYYATI

Milliy uyg'onish davriga mansub o'nlab shoirlar o'z davri uchun muhim va dolzarb bo'lgan mavzularda lirik asarlar yaratdilar. Ma'lumki, "badiiy matnning mavzui uning predmeti bilan belgilanadi. Badiiy matn predmeti esa inson hayotining turli tuman holati, kurashi, orzu-intilishlari, tabiatga, voqelikka munosabatidir"¹. XX asr boshlariga kelib lirikada bosh qahramon realistik qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Bu davr adabiyotining lirik qahramoni "o'zidan oldingi davr adabiyoti lirik qahramonining tadrijiy rivojlanishidan iborat"².

Har bir davrda ijodkor o'zi yashagan muhitdagi ijtimoiy masalalarni yoritadi, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga munosabat bildiradi, shuningdek, adabiy jarayonda faol qatnashgani holda zamondoshlari bilan ijodiy muloqotda ham bo'ladi. Ma'lumki, tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida ziyolilar, ijodkorlar jamiyatning eng faol shaxslari bo'lganlar. Shoir, yozuvchi, ma'rifatparvarlarning ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy g'oyalari xalqning ongini uyg'otgan. Jumladan, XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda yashab ijod etgan ma'rifatparvar shoirlar o'z asarlarida xalqni milliy o'zligini anglashga undashga chorladilar, ma'rifat va ilm bilan jaholatga qarshi kurashishni maqsad deb bildilar. She'riyatda an'anaviy mavzu muhabbatga doir asarlar yozilsa ham, ijtimoiy-siyosiy lirika nisbatan yetakchilik qildi. Chunki chor Rossiyasi istibdodi va mahalliy zulm ostida qolgan Turkiston hayotida murakkab vaziyat hukm surardi. Shunday sharoitda o'lka shoirlari bir mavzu, bir g'oyaviy yo'nalishda she'rlar yaratdilar.

Adabiyotshunos B.Qosimov ta'kidlaganidek, "Bu davr adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir. Unda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlandi. Devon adabiyotida she'riyat asosiy o'rin egalladi. Keng ma'noni qamrab oluvchi ishq mavzui bu davrda ham she'riyatning

¹ Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т., 1990. – 23-б.

² Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 2 ж. Лирика. – Т., 1992. 88-б.

markaziy mavzui bo'lib qoldi. Badiiy adabiyotda hajviyot rivoj topdi. Adreslik tanqid kuchaydi. Realistik tasvir keng o'rin ola boshladi"¹.

Ijtimoiy hayotdagi siyosiy voqealar, madaniy yangiliklar, tarixiy o'zgarishlarga hozirjavoblik bilan munosabatda bo'lgan shoirlardan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Ishoqxon Ibrat, Sidqiy Xondayliqiy, Karimbek Kamiy, Nasimiylarning she'rlari o'nlab mavzulardagi poetik turkumlarga birlashadi. Ularning ko'pchiligi bir mushoira davrasida va bir adabiy maktab doirasida bo'lganlar, shu jihatdan o'zaro maslakdosh bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Turli janr va shakllarda bitilgan manzumalarning mavzu doirasi keng bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) ijtimoiy-siyosiy mavzudagi poetik turkumlar; 2) hajviy-tanqidiy mavzudagi poetik turkumlar; 3) yumoristik mavzudagi poetik turkumlar; 4) lirik yo'nalishdagi poetik turkumlar.

Ushbu ijodkorlarning ijodiy merosida Yevropadan ruslar orqali kirib kelgan madaniy yangiliklar, buyumlar, jihozlar va b.larga ijobiy munosabat bildirilgan asarlar mavjud bo'lsa ham, bu ularning chorizm bosqini yoki rus zobitlariga xayrihox bo'lganligini anglatmaydi.

Ma'lumki, Turkiston o'lkasi uchun siyosiy hayotdagi ayrim o'zgarishlar, masalan, saylov munosabatlari tamoman yangilik edi. Bir necha ijodkorlarning bu mavzuda qalam tebratishi ularning siyosiy hayotdagi o'zgarishlarga hozirjavob bo'lganini ko'rsatadi. Bunday she'rlar "Saylov haqidagi poetik turkum"ga birlashadi. Uning namunalarini Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ijodi misolida ko'rish mumkin. Shoir saylov vaqtida amaldorlarning amal va mansab uchun yelib yugurganlari, xalqqa qilinayotgan zulm haqida tanqidiy fikrlarini bildiradi. Xususan ilk satrlardayoq saylovni "balo" deb aytadi. Keyingi o'rinlarda esa amaldorlar holatini xalqona tashbehnlarni qo'llab tasvirlaydi:

Teraklar bargidek titrab, jamii qozi — mingboshi

Degoylarkim: «Yuzini teskari qil, ey xudo, saylov».

Qozi va mingboshilarning terak bargidek titrashi g'oyat hayotiy bo'lib, bu holat, ya'ni bargning har soniyada shabodada hilpirashi o'quvchi ko'z o'ngida tez namoyon bo'ladi. "Yuzini teskari qil" jumlasini ham xalq jonli so'zlashuvidagi ibora bo'lib, u ayni vaqtda ketishni bildiradi.

Amalu mansabga pul sarflab o'zini har yoqqa urganlarni shoir tanqid qilarkan, o'zining kinoya va istehzolarini bildiradi. Saylov vabo singari barchani xarob qilganini ta'kidlaydi:

Agar ming xatmi qur'on etsalar, qo'ylar so'yub arzir,

O'lumdin qoldi qolganlar, bo'lib erdi vabo saylov.

Turkiston hayotiga kirib kelgan yangicha siyosiy o'zgarishlar haqida B.Qosimov quyidagilarni qayd etadi: "Saylov adabiyotimiz uchun yangi mavzu. Chor hukumati Turkistonda

¹Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. – Т., 2004. – 21-б.

saylovni joriy etdi. Yuzboshi, mingboshi, qozi saylanadigan bo'ldi. Lekin bu saylov poraxo'rlikka yo'l ochdi. Badavlat kishilarning pul sochish musobaqasiga aylanib ketdi"¹.

Saylovning oddiy aholiga naqadar og'ir ta'sir qilganini, amaldorlarning xalqni shilib olganliklarini shoir real tasvirlar bilan bayon etadi:

*Taloshi joh aylab, ot chopib, olmay dame orom,
Musulmonlarni rangin ayladi chun qahrabo saylov.*

She'r "xalqning saylov haqidagi gap so'zlaridan og'rimagan bosh qolmadi, agar saylov tugasa shahar tinchib qolgan bo'lardi" degan umidli xotima bilan yakunlanadi.

Shoir Zavqiy ijodidagi "Voqelai qozi saylov" she'rida ham qozilikka saylanish uchun o'zini o'tga cho'qqa urgan amaldorlar tanqid qilinadi. Xususan, agar insonga biror narsaga havas tug'ilsa, uning ko'yiga tushib qolishi ana shu qozi misolida aytib o'tiladi:

*Degaylar ko'ngulga jo bo'lsa havas,
Har ishda odami tinchimas birpas.*

Zavqiy she'rda joylarning aniq nomlarini keltiradi. "Bir voqea aytib beraman, qozi saylov haqida" degan mazmunda boshlangan ushbu asarda voqeaning Qo'qonda, Xo'jand dahasida bo'lganini aytib o'tadi. Bundan tashqari qozilikka intilgan kishi "mulla Kamol" ekani ma'lum bo'ladi:

*Qoziyi vaqt ismi mulla Kamol,
O'rnida qolmog'ig'a xom xayol.*

O'z o'rnida qolishning tadorigiga tushgan qozining boshiga "jahonning tashvishu g'ami" tushgani, biror vaqt bu g'amdan holi bo'lmaganini aytib o'tiladi. Bu yo'lda qozining ellikboshiga pora bergani fosh etiladi:

*Berib ellikboshiga o'n ming so'm,
Dedi: aylang na bo'lsa rasm-rusum.*

Bu pullarni mulla Kamol qarzga olganini, o'zi asli SHahrixondan kelib qolgani, o'zini xondan ham baland tutishi, endi olgan qarzlari evaziga xalqqa zulm qilishini shoir tanqid ostiga oladi. She'rda qozining Shokirqora bilan munosabatlari o'ziga xos tashbeh bilan beriladi, ya'ni ular bir birlaridan ajralmaydigan mag'izu po'st singari. Demak, qiyofa va qilmishlari ham o'zaro o'xshash. Ularning yana bir gumashtalari "Hasanjon a'lam"dir:

*Yana nopoklig'i mashhuri jahon,
Hasanjon a'lamdin ajramay bir on.*

Bu shaxslardan xalq ranju uqubat ko'rayotganliklari, fisq va fujur avj olib ketgani xotimada bayon etiladi.

¹Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент: Маънавият, 2004. 102-б.

Turkiston ijtimoiy hayotidagi ayanchli holatlar, xalqning og'ir iqtisodiy hayoti poetik turkumlarning deyarli barchasida real tasvirlanadi. "Qarz" turkumidagi she'rlardan Zavqiy asarida barchaning qarzga muhtalo bo'lgani aytilib, "xudo oldidagi farzni ado etaylikmi yoki qarznimi?" kabi savol alomati bilan murojaat etadi. Shoirning "har ko'chayu mahalladan o'tsam qarzingni to'la, xitoblari eshitiladi" degan so'zlari ayanchlidir. Qarzdin qutulishning hech iloji yo'qligi, kasb hunar bilan tirikchilik qilib bo'lmasligi quyidagi misralarda keltiriladi:

*Yo'q zarra najot hech, kun-tun ziyod o'lur,
Qo'sh-qo'sh tug'adur haftada yangi oyi qarz.
Bozor kasod, kasbu hunarga rivoj yo'q,
Nafs shaytonining vasvasasi, royi qarz.*

Sayohatnoma yo'nalishidagi poetik turkum. Ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti vakillari o'z hayotlari davomida boshqa mamlakatlar taraqqiyotini ko'rish, ulardan ilg'or jihatlarni o'rganish va vatanga olib kelish fikri bilan yashaganlar. Muqimiy, Zavqiylar ijodidagi sayohat taassurotlari she'riy shaklni olgan bo'lsa, jadid adiblardan Behbudiy, Cho'lponlar bu borada nasriy, publitsistik asarlar yaratdilar.

Muqimiy sayohatlari asosan Farg'ona vodiysi bo'ylab bo'ldi. Shoir Qo'qondan Shohimardonga, Farg'onaga, Isfaraga qilgan sayohatlari asosida turkum she'rlar yaratdi. Muqimiy bu joylarning tabiati, muhiti, iqlimidan tashqari odamlari, urf odat va an'analari, udumlarini tasvirlaydi. "Sayohatnoma" shoirning dunyodan shikoyat qilishi, "ahli funun"ga dunyo teskari ishlarni ko'rsatishi bayoni bilan boshlanadi.

She'rda Ultarma, Do'rmoncha, Bo'rbaqiq, Oq yer, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, Chimyon, Vodil kabi joy nomlari keltiriladi. Ba'zi qishloqlar tasvirida vatan kengliklari, tabiati, go'zal manzaralar berilsa, ayrimlarida tanqidiy munosabat ko'zga tashlanadi.

*Ammo nazarda Roshidon,
Firdavs bog'idan nishon.
O'ynab oqar obi ravon,
Sahni gulu gulzor ekan.*

*Vodil maqomi dalfizo,
Ko'chalaridur dalkusho.
Anhorida obi safo,
Sebarga, obishor ekan.*

*Anhoru soyu jo'lari,
O'ynab keladur suvlari,*

*Shirinki zardolulari,
Qandu asal bekor ekan.*

“Sayohatnoma”ning boshqa o’rinlarida esa shoirning tanqidiy fikrlari ko’rinadi. Bunday satrlarda xalqning naqadar qiyinchilikda hayot kechirayotgani, turmush tarzining og’irligi qalamga olinadi. Shoir yo’l zahmatlarini tasvirlab, qaroqchi, o’g’rilarning borligini, bunday joylar “xoriston” ekanini kuyinchaklik bilan aytib o’tadi:

*Kun tobishida bu safar,
Yo’llar saqardan ham batar,
Tog’ ichra rahzan bachchag’ar,
Ko’p elni qaqshatqon ekan.*

*Ketguncha yo’llar xorlar,
Yo’l zahmidan ozorlar.
Ko’kka yetar ko’hsorlar,
Hayhot! Xoriston ekan.*

*Qir pastida sho’rtang arig’,
Bir to’p yigit o’rgay tarig’.
To’nsiz, yalang’och, hay darig’,
Bechora, och dehqon ekan.*

Muqimiy “Sayohatnoma”si singari she’rlar bitish Qo’qon shoirlari uchun an’ana bo’ldi. Jumladan, Zavqiy, Furqat, Tajalliy kabi shoirlar Muqimiy asarining vazni, radifi, qofiyasi asosida o’z “Sayohatnoma”larini yaratdilar. Zavqiy she’ri “Shohimardon xotirasi” deb nomlangan bo’lib, unda tabiat manzaralari, qishloq hayoti lavhalari, odamlarining fe’l atvorlari tasvirlanadi. Bu manzaralar shoir nigohida ro’y bergan, ularni kuzatish jarayonida shoir o’ziga xos umumlashma fikrlar chiqargan. She’r Muqimiy “Sayohatnoma”sidan farqli o’laroq, dastlabki bandlari ko’tarinki kayfiyatda beriladi:

*Bu ravzaga kimki kelib,
Bir kechasi mehmon ekan.
Umrda bir ko’rgan kishi
O’lganda bearmon ekan.*

*Ikki tarafdin soy deng,
Ko’m ko’k musaffo choy deng.
Har dam ichib hoy hoy deng,*

Obi hayoti jon ekan.

Ushbu makonning qanday atalishi shoir tomonidan “sir” tutiladi. Bu yerda katta daryo borligi, uning suvi har tomonga oqishi, bundan ko’z qamashib hayron bo’lishi aytib o’tadi. Shoir bu yerda rajab oyida bo’lganini ta’kidlab, uning “jannati rizvon” ekanini e’tirof etadi. To’qqiz banddan iborat “Sayohatnoma”ning beshinchi va oltinchi bandlarida tanqidiy fikrlar mavjud:

*Boloda tang tang ko’chalar,
Turgayki, shayxu xo’jalar.
Kelsa tovuq ham jo’jalar,
Yozmoqda dasturxon ekan.*

*Badshaklu badxo’, badnamo,
Botinda kiyna, fisq, riyo,
Kim uchrasa shilqim gado,
Sulloh, ozori jon ekan.*

Dunyo ziddiyatlar asosiga qurilgani singari ushbu “Sayohatnoma”larda yaxshi va yomon, go’zal va xunuk, to’g’rilik va egrilik tushunchalari shoirlar tomonidan talqin etilganini ko’ramiz. Zavqiyning yuqoridagi misralarida shayxu xo’jalar, shilqim gadolarning tashqi qiyofalari ularning “gina, fisq, riyo”ga to’lgan “botin” (ichi, qalb)i bilan muvofiq ekanini ta’riflangan. Keyingi bandlarda tabiatning go’zal manzaralari tavsifi davom ettiriladi:

*Sahni ajoyib hushhavo,
Ham ruhparvar, jon fizo.
Xushbo’ ko’ringan har giyoh,
Jambil bilan rayhon ekan.*

*Bo’lsa kerak bul tog’lar,
Kam kam chiroyli bog’lar,
Hech kimsa ko’rmas dog’lar,
Ko’ngli aro qolgan ekan.*

Shoir xotimada ana shunday go’zal joylarda uzoq turolmaganidan afsuslanganini bildiradi hamda bu joyning “ehromi Uchqo’rg’on” ekanini ta’kidlaydi. Zavqiy ijodiy merosida “Obid mingboshi haqida hajv” nomli she’r ham sayohatnoma yo’nalishida yozilgan bo’lib, mingboshining kirdikorlari fosh etib tashlanadi.

Bu davrda “Sayohatnoma” yo’nalishida she’r yozgan Tajalliy asaridan ayrim parchalargina yetib kelgan. Furqatning “Sayohatnoma”si esa Muqimiy va Zavqiy asarlaridan farqlanadi. Shuni

ta'kidlash o'rinliki, Buxoro adabiy muhitida ham fors tojik tilida sayohatnomalar bitildi. Bu esa mazkur janrning keng ommalashganidan dalolat beradi.

Xalq hayotini realistik ko'lamda tasvirlash ma'rifatparvar shoirlarning asosiy maqsadi bo'lganini fonus mavzusidagi poetik turkumlar mazmunidan anglash mumkin. Zavqiyning ushbu mavzuga bag'ishlangan she'ri fonusga murojaatdan boshlanadi. Agar fonus kelsa shoir kulbasi charog'on bo'lishini o'qigan kitobxon kambag'al bechoralarning uyida fonus yo'qligini anglaydi. Shoir fonusga go'yo odamga munosabat bildirganday rozi dil qiladi, uning to'ralar uyida xor bo'lmaslikka chaqiradi. Bu o'rinda tashxis san'atining o'ziga xos shakli yuzaga chiqqan:

*Jonu dil ila aylay, kelganda izzatingni,
Sen bo'lmag'il to'ramg'a ul yerda xor, fonus.*

*Mohi sharaflarida oqshom qilib riyozat,
Kunduzlari nazardin o'ldingmi dur, fonus.*

Fonus timsolida shoir go'yoki oddiy xalq ahvolini tasvirlayotganday tuyuladi. Shoir ko'chma ma'no orqali aslida fonusni emas, "hazratlar", "to'ralar", "xo'jalar" qo'lidagi xizmatkor, chorakorlarning nochor ahvolini tavsif etadi. Ularning "iqbolu tolei kam, peshonasi sho'r"ligini achinish bilan qayd etadi. Shoir fonusni o'zi bilan teng ko'radi, uni "oshnolig'"ga chaqiradi:

*Ko'ngulda bo'lsa nogoh men birla oshnolig',
Borgan zamoni darrov, chopqilla, yur, fonus.*

Fonus vasfini eshitganda ko'zlar ravshan bo'lgani, dilga surur to'lganini shoir quvonch bilan qayd etadi. Biroq, uning "hazrat"ga "ta'yin qilingan"ligidan agar tez qochmasa sho'ri qurib qolishini uqtiradi. She'r so'nggida sham yoqqanda shamol turib uni o'chirib qo'yishi, fonussiz shoirning ko'ngli behuzur, noshod ekanini aytadi:

*Bir kecha sham' yoqsam hargiz shamol qo'ymay,
Sensiz kamina Zavqiy, ko'p behuzur, fonus.*

Muqimiy ijodida fonusga atalgan she'r Zavqiyga javob tarzida yozilgan bo'lib, unda bu buyumning Toshkentning Shayxontahuridan keltirilgani aytib o'tiladi. Sham o'rniga fonus yoqilishi yaxshiroq ekani aytib o'tiladi:

*Yirtiqlarin yamab siz yaxshi qilib yoqing sham,
Ma'yus ketdi mundin bo sad qusur fonus.
Bor erdi tab'larda bermak seni birovga,
Joyingni endi topding qilg'il shukur fonus.
Xotirda yo'q edikim, ko'zdin Muqimiy ketsang,
Zavqiy seni tilabdurbermak zarur fonus.*

Temir yo'l haqidagi poetik turkum. Shunday poetik turkumlardan Karimbek Kamiyning Turkiston o'lkasiga poezd kirib kelishi munosabati bilan yozilgan "Temir yo'l xususida" manzumasida shoirning mazkur tarixiy voqeaga nisbatan qarashlarini anglash mumkin. Manzuma shoirning qalamga murojaati bilan boshlanadi. O'tgan zamonlar qanday edi? deya savol beradi. Qalam unga javoban:

Qadim ayyom ko'b erdi mashaqqat,

Suubat, kulfatu ham ranju mehnat, -

deydi. She'ning oxiriga qadar qalam temir yo'lning afzalliklari bayon etiladi. Shoir va qalamning savol javobi asosida yozilgan ushbu she'r o'quvchida qiziqish uyg'otadi va qalamning jonlantirilishi, ya'ni qo'llanilgan tashxis orqali asarning estetik qimmati ortadi.

Asarning mazmunidan shoirning ratsionalistik munosabatini tushunish mumkin. Chunki Kamiy temir yo'lga uzoqni yaqin qiluvchi vosita sifatida ma'qullaydi:

Yaqin qildi uzoq yo'llarni turfa,

Durust aylab chatoq yo'llarni turfa.

Ne xush, hujjohlarg'a bo'ldi oson,

Temir yo'l birla bormak hajg'a, ey jon.

Bo'lub bexavfu bevahmu xatarsiz,

Borur, ham tez kelgaylar zararsiz.

Turkistonga rus chorizmi tomonidan olib kelingan temir yo'l aslida xom ashyo, yer osti, yer usti boyliklari, moddiy madaniy merosni tashib ketish uchun mo'ljallangan edi. Davr ijodkorlari kabi Karimbek Kamiy ham poezdning o'zbeklarning hayotini yengillashtiruvchi vosita deb, xususan, hajga borishning qulay bo'lganligini mamnuniyat bilan ta'kidlaydi. Adabiyotshunos B.Qosimov K.Kamiyning ijtimoiy she'riyati haqida so'z yuritarkan: "Kamiy she'rlarida charxning "ravishi kaj"ligidan to zolim podshohning zulmigacha ochlik yillarigacha "suubatu alami"dan fevralning sururigacha, oktyabrning "ranju zulmi"dan boshlab Turkiston muxtoriyatini qonga botirgan bolsheviklarning "fe'li bad"igacha o'z ifodasini topgan", - deydi¹. Poezd ta'rifi bag'ishlangan Kamiyning ushbu she'ri ham ijtimoiy mavzuga daxldor. Shuningdek, undagi bosh g'oya ham shoir ijodining asosini tashkil etadi.

Sidqiy Xondayliqiyning "Dar ta'rifi otasharoba" she'rida asosan poezdning tashqi ko'rinishi tavsiflanadi. Poezdning tez yurishiga "charx urmoq" iborasini qo'llab, uning "o'tdan qanot bog'lagani", "dudi (tutuni)ni boshiga afsar (toj)" qilganini, "ro'zu shab (ertayu kech) tog'u cho'llarni kezishi"ni, "egri yo'ldan yurmay, to'g'ri yo'ldan yurishi"ni poetik obrazlar orqali tasvirlaydi.

¹Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент Маънавият, 2004. 1999 б.

*El degay lochinni tez uchgay, bu so'z lekin g'alat,
Kim jamii jonvardin keldi chobuktar vagon.
Yozu qish tinmay talab birlan yurar besaru po,
Ishq elidek dam-badam o'tlar sochib ahmar vagon.*

Ma'rifatparvar shoir Is'hoqxon Ibratning "Tarixi vagon Is'hoqxon Ibratdin" taxmis shaklida yozilgan bo'lib, unda muallifning hissiy ifodalari, quvonchu hayratlari beriladi. Xuddi Sidqiyda bo'lganidek, poezdning kelishini "jonu jahon", "xalqqa don", "maishat uzra non" keldi deb ta'rifu tavsif etadi. Ibrat bu texnika turini "arzoqi insoniy vagon" deb ataydi. Ibrat boshqa shoirlar farqli o'laroq she'rda poezd yo'li qurilgan sanani hijriy yil bilan ko'rsatadi:

*Ming uch yuzu yigirma sakkiz erdi bu temir yo'lga,
Kelib, ish boshlagan erdi qaramay o'ng ila so'lga,
Xaloyiq ish boshlashib pastu baland, ko'l ila cho'lga
Bihamdullah, bu ishda keldi ko'bni maqsadi qo'lga,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.*

Ushbu hijriy yil melodiy yilga aylantirilganda, 1910 yilga to'g'ri keladi. Adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek: "...chor Rusiyasi bu tadbir bilan yerli aholining mushkulini oson, uzog'ini yaqin qilish maqsadini qo'ygan emas, aksincha, mustamlaka o'lka yer usti va yer osti boyliklarini mo'lroq va tezroq tashib ketish maqsadini qo'ygan edi"¹. Is'hoqxon Ibrat "o'z xalqi manfaatlari nuqtai nazaridan munosabatda bo'ldi".

*Namangan ahliga bormoq edi Xo'qandga ko'b mehnat,
O'tupca sart aroba uzra mehnat ustiga kulfat,
Aroba mehnatidin bormoqqa bo'lmas edi jur'at,
Bu daryoyu aroba mehnatidin aylabon uzlat,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.*

Garchi I.Ibrat madaniy hodisa sanalgan va xalqimiz tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olingan poezd yo'lining qurilishiga ijobiy fikr bildirsa-da, u istibdodga, chorizm mustamlakachiligiga qarshi bo'lgan. Demak, shoir va yozuvchilarning jamiyatdagi madaniy, tarixiy voqea hodisalarni qabul qilish holati hamda mustamlakaga bo'lgan qarshi munosabatini bir yoqlama tushunmaslik kerak.

XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar ma'rifatparvar shoirlarning diqqat markazida bo'ldi. Rus istilosi davrida o'lkaga siyosiy o'zgarishlar bilan birga madaniy yangiliklar ham kirib kelgan. O'nlab o'zbek shoirlari bu madaniy yangiliklarga zamonning

¹Кўрсатилган асар, 178-б.

ijobiy hodisasi sifatida qaraganlar, mazkur o'zgarishlar o'zbek xalqini taraqqiyot yo'liga olib chiqishga ko'mak berishiga ishonganlar va o'z asarlarida badiiy talqin etganlar.

Zamonadan shikoyat turkumi. Jamiyat hayotidagi turfa o'zgarishlar ma'rifatparvar shoirlarning tanqidiy munosabatini paydo qildi. Lirikada hajv, tanqid, fosh etish, kinoya mazmuni yetakchilik qildi. Muqimiy, Zavqiy, Ibrat, Kamiy kabi shoirlar ijodida shu turkumga birlashadigan turli janr va shakldagi asarlar bor. Muqimiy ijodida "Dar mazammati zamona" she'ri voqealarning real tasviri bilan ajralib turadi. Shoir xalq orasida "yoqasini ushlamoq" iborasini, ya'ni hayratga tushmoq mazmunini "ikki qo'li yoqasida" shaklida qo'llaydi:

*Darig'okim, ajoyib turfa bir oxir zamon bo'ldi,
Iki qo'l to yoqoda yurmasang ishlar yomon bo'ldi.*

Muqimiyning mazkur she'rida bosmachilar so'zi bir necha o'rinda takrorlanadi. Aslida "bosmachi" degan nomni shoir rus bosqinchilariga nisbatan qo'llagan. Sho'ro davrida Muqimiy singari ijodkorlar asarlarining matni buzib soxtalashtirib berilgan. Mustaqillik yillarida asl matndagi "pir" so'zi "er" bilan almashtirib nashr qilingani aniqlashtirildi:

*Urub bir necha pirni bosmachilar zor qaqshatdi,
Ki aksar bevau bechoralar bexonumon bo'ldi.*

Mazkur davrga oid ilmiy, tarixiy, adabiy manbalarda ham ma'naviyat, din, axloq odobni izdan chiqaradigan ishlar qilingani qayd etiladi: "Buxoro amirligi hududida yashagan uch milliondan ziyod aholidan faqat o'n, o'n besh kishi o'g'irlikda ayblanib, zindonga tashlanardi. O'g'ri, mutahham kamligi, deyarli yo'qligidan inqilobga qadar O'rta Osiyo va Qozog'istonda qulf ishlatilmas edi. Yozuvchi Abdulla Qahhor yozganidek, rus bosqini bizga qulf bilan aroqni olib keldi. Oqibatda o'g'irlik avjiga chiqdi, dinimiz, urf odatlarimiz va barcha qadriyatlarimiz poymol qilindi"¹.

Muqimiy o'g'rilarning ko'paygani, ularning talotumlaridan oddiy odamlarning kechalari tong ottirolmay chiqishi, puldor boylarning vahimada yashayotgani quyidagicha tasvirlanadi:

*Yig'ildi har tarafdin zo'r zan, xunrez o'g'rilar,
Alardin nechasi badbaxtlarni pirsion bo'ldi.
Yaqin bir oyg'acha puldorlar ahvoli har oqshom
Kishi bilmas yotar joyi daruni kohdon bo'ldi.
Otib tong uxlasholmay duzdlar vahmi bilan hargiz,
Semiz boylar ozib, g'am birla cho'pu ustuxon bo'ldi.*

Shoir xotimada o'g'rilarni hech kim tutmayotgani, ular nishonga olinmayotganini kuyinchaklik bilan yozadi.

¹Хасаний М. Юрт бўйнидаги қилич ёки истило. Тошкент:Адолат, 1997. 75 б.

Zavqiy she'ri ham "Dar mazammati zamona" deb nomlanadi. She'r g'azal shaklida yozilgan bo'lib, Muqimiy fikrlarini ijodiy tarzda to'ldiradi deyish mumkin. Zavqiy zamona haqidagi fikrlarini tazod san'ati asosida chiroyli ifodalaydi:

*Ey falak, Farg'onaga tegdimu bilmam ko'zlar,
Chilla-yu doim zimiston, bo'lmag'ay navro'zlar.*

"Zimiston" so'zi qish faslini, shuningdek, qorong'ulik ma'nosini anglatadi. Qishning ziddi bahor, navro'z, qorong'ulikning ziddi esa yorug'likdir. Shoir baytda tabiatning qish va bahor fasllarini keltirar ekan, uning zamirida Farg'onadagi ijtimoiy muhitga urg'u beradi. Chunki tabiat qonunlari o'zgarmaydi, ya'ni "doim zimiston (qish)" bo'lavermaydi. "Navro'zning bo'lmasligi" xalqning yorug' kunlarga, baxtli damlarga yetaolmayotganidan dalolatdir. Keyingi o'rinlarda bu fikrlarning dalilini ko'rish mumkin:

*Beva-yu bechora kosiblarga hurmat qolmadi,
O'g'rilar atlas kiyib, boy bo'ldi ko'p to'ng'uzlar.*

Yurtning ahvoliga osmondagi oyu yulduzlar har kecha yig'lashi, bundan oyning ko'ksi dog', yulduzlar esa falakning ko'z yoshlari ekani aytib o'tiladi:

*Yurtu el ahvolig'a zor yig'lamoqdin har kecha,
Oy ko'ksi dog'u gardun ashkidur yulduzlar.*

Agarda kimgadir arzihol etilsa, hech kimning quloq solmasligi, shikoyat qilganlarni "depsashi", bundan esa majruh qalblarning ma'yus bo'lishi aytib o'tiladi. Muqimiy o'z she'rining birinchi baytida "yoqani ushlamoq" iborasini qo'llagan bo'lsa, Zavqiy she'rining xotimasida ushbu ibora quyidagicha uchraydi:

*Tavba deb, Zavqiy yaqongni ushla, bo'lg'il ehtiyot,
Ajdahodek komini ochganda yalmog'uzlar.*

Ibratning shu mavzudagi she'rida ham tanqidiy fikrlar kuzatiladi:

*Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo'lubdur,
Beandisha xaloyiq fe'li yamon bo'lubdur.*

Ushbu g'azalni tahlil qilgan M.Tojiboeva quyidagi fikrlarni keltiradi: "G'azalning boshlanmasidanoq uning mohiyatini belgilovchi jihat jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi ziddiyatni fosh etish ekanligini sezish qiyin emas. SHoir o'z nomidan gapiradi, shuning uchun ham lirik qahramon shoirning o'zi bo'lib ko'rinadi"¹. Darhaqiqat, bu davr shoiru adiblari asarlari markazida real insonlar, ba'zan ularning o'zi, ba'zan o'zining zamondoshlari tasvirlanadi. Realizm shakllangan ushbu asrda bu holat tabiiy ham edi.

¹Tojiboeva M. Жадид адабиёти ва мумтоз анъаналар. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – 39-бет.

Ibratning she'rida olimu faqirning zuhdu amali qolmagani, shayxlarning g'iybatu fasodlardan bo'shamasligi, madrasalar ichida fitna va sho'rishlarning ko'pligi, har kuni o'n xil urush bo'lishi, boylarning zakot bermay sandiqqa pul berkitishlari, dehqonning xirmonini kech olishi, duradgorlar, ustalarning ishida baraka yo'qligi, nonvoy va alloflarda insof yo'qligi tanqidiy fikrlar ostida beriladi. Shoir zamonasidagi turli kasb kor kishilarini tilga oladi. Masalan, shoirning tasviridan qassob, qo'yfurush, nonvoy, allof, qozi, ellikboshi, boy va kambag'allarning qiyofasi, turmush tarzini tasavvur qilish mumkin. Yoki rus bosqini tufayli o'lkada ichkilik avj olgani, axloqsiz ayollar paydo bo'lgani kuyunchaklik bilan bayon etiladi:

Mahbubi nahshixonlar, ko'zi qaro juvonlar

Gastinsalarda yurib, sarfi ziyon bo'lubdur.

Ibratning shu turkumga kiruvchi boshqa she'rlardan farqi unda ta'rix san'ati orqali bu voqealar qachon ro'y bergani keltiriladi:

Manzuma soli tarix, bu dahri inqilobi,

Ming ikki yuz to'qson ikki bayon bo'lubdur.

Agar abjad hisobi bo'yicha olsak, shoir aytgan 1292 hijriy yil melodiy 1875-1876 yillarga, ya'ni Qo'qon xonligining tugatilish davriga to'g'ri keladi. Ibrat ijodida "Shikoyati zamona" nomli yana bir masnaviy shaklidagi she'r mavjud. Unda shoir qalamga murojaat etib, zamondan norozi ekanligini aytib o'tadi. Mazkur she'r ham avvalgisi singari katta hajmda bitilgan bo'lib, shoirning ijtimoiy fikrlarini aks ettirgan.

Shoir Zavqiyning masnaviysi zamonga murojaat bilan boshlangan. U zamonni "kajdoru mariz" deb aytadi, ya'ni teskari va kasal, bemor ma'nosida sifatlaydi.

Xullas, XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar ma'rifatparvar shoirlarning diqqat markazida bo'ldi. Rus istilosi davrida o'lkaga siyosiy o'zgarishlar bilan birga madaniy yangiliklar ham kirib kelgan. O'nlab o'zbek shoirlari bu madaniy yangiliklarga zamonning ijobiy hodisasi sifatida qaraganlar, mazkur o'zgarishlar o'zbek xalqini taraqqiyot yo'liga olib chiqishga ko'mak berishiga ishonganlar va o'z asarlarida badiiy talqin etganlar.

II BOB. BADIY OBRAZLAR OLAMI

II.1. AN'ANAVIY OBRAZLARNING O'ZIGA XOS TALQINI

Obraz deganda odatda ijodkor tomonidan hayot hodisalari, narsa, tushuncha kabilarning qayta ishlangan aksi tushuniladi. Ma'rifatparvarlik lirikasida mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlar yor, oshiq, raqib yetakchilik qildi. Biroq ularning mohiyati o'zgardi, lirik qahramon xayoliy inson bo'lmay, hayotdagi real shaxs sifatida bo'y ko'rsatdi. Adabiyotlarda ta'kidlanganidek: "...Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Komil, Avaz O'tar, Anbar otin realizm metodida ijod qildi; e'tiborini hayotni aks ettirishga qaratdi, rostini yozish, voqeani haqqoniy, ob'ektiv baholash; muhim masalani xalqchilik printsipli asosida, turmush va davr muammolariga faol aralashish orqali tasvirlash, badiiy puxta she'rlar yaratishni maqsad qilib oldilar..."¹.

Davr adabiyotining lirik qahramoni ko'p hollarda shoirning o'zi degan tasavvur qoldiradi. Chunki atrof olam, jamiyat bag'ridagi keskin o'zgarishlar, ijobiy va salbiy siljishlar, turfa yangiliklar shoir atrofida, ko'z o'ngida, uning ishtirokida ro'y beradi. Poetik turkumlar tarkibidagi "Naylayin" radifli muxammas qahramoni mumtoz adabiyotdagi an'anaviy oshiq obrazi ekanligi ayon bo'ladi. Musaddasda yordan iltifot ko'rmagan "hajr ila doim tani afgor", g'amgusor, "tarahhum ko'rmagan telba", baxti qaro, tani majruh, ko'ksi yara oshiq obrazi shoir Zoriy tomonidan yaratilgan bo'lsa, ushbu tavsiflarning Nodim lirikasida ham tadrijiy davom ettirilganini ko'ramiz:

*Hech rohat ko'rmadim sandin giriftoring bo'lib,
Etmadi bir mahrami siynamga afgor bo'lib,
Ko'rmadim hargiz jamolingni xaridoring bo'lib,
Bir iloji topmadim g'urbatda bemoring bo'lib,
Yor sensiz naylayin, dildor sensiz naylayin.*

Ma'lumki, an'anaviy obrazlardan oshiq doimo jabr chekuvchi, nolayu afg'on chekuvchi, fidoyi, ishqda sobit qiyofasida ko'rinadi. Yor obrazi esa go'zallikda, shuningdek axloqda ham mukammal tasvirlanadi. Nodim she'riyati haqida ilmiy adabiyotlarda quyidagi tahlillar berilgan: "Nodim lirik qahramoni ham o'zbek ayollarining beniqob yurishini xohlaydi, uningcha xotin cho'ri emas, balki hamdamdir; qarzdorlik, sudxo'rlikning avj olayotganligi va buning ayanchli oqibatlarini real idrok etadi..."².

Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi shoirlarning ham lirik qahramoni shaxsiy baxti yo'q, faqir kabi namoyon bo'ladi. Bu ijodkorlar o'z hayotlarida ham oilasi buzilib, umrini noshodlikda, nokomlikda o'tkazdilar.

¹Адабий тур ва жанрлар. Уч жилдлик. 2 жилд. Лирика. Тошкент: 1992. 89 бет.

²Адабий тур ва жанрлар. Уч жилдлик. 2 жилд. Лирика. Тошкент: 1992. 91 бет.

Mazkur davr lirik qahramoni mumtoz adabiyotdagi lirik qahramondan farqi uning ijtimoiylashganida deb ko'rsatish mumkin. Davr shoirlari yaratgan boshqa obrazlar ham bevosita jamiyatdagi kamchiliklarni ko'rsatishga, hayotdagi nuqsonlarga ishora etishga xizmat qilgan deya olamiz.

Bu davr she'riyati obrazlar tizimidagi yangilik shundan iboratki, jamiyat hayotiga kirib kelgan ijtimoiy munosabatlar natijasida paydo bo'lgan yangi kishilar obrazlari paydo bo'ldi. Adabiyotlarda qayd etilganidek: "...yangi zamon tug'dirgan butunlay yangi obrazlar, chunonchi, sudxo'rlar, savdogarlar, yumoristik g'azallarda oddiy mehnat ahli, sozandalar, hunarmandlar va boshqalar hamdir. Agar traditsion oshiq, ma'shuqa, mutafakkir, raqib va shayx hamda boshqa obrazlarni biz, asosan ishqiy, falsafiy va publitsistik g'azallarda ko'rsak, tovlamachi, sudxo'r, savdogarlar obrazlarini ko'proq yumoristik g'azallarda uchratamiz"¹. Poetik turkumlar tarkibida hajviy-tanqidiy va yumoristik yo'nalishdagi namunalar bor.

Shuni aytish kerakki, badiiy obrazlar lirikada nasrga nisbatan ramziylikka, majozga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Chunki lirika obrazning "metaforikligi"ni aks ettirishga xoslangan.

"Kalish" va "Kovush"ga bag'ishlangan poetik turkumlardagi lirik qahramon real inson bo'lsa, kalish obrazi orqali shoir hayot sharoitining qiyinligini uqtiradi. Masalan, Zavqiyning "Ta'rifi kalish" she'ri shu haqdadir. Unda shoirning kalishni maqtash asnosida jamiyatdagi nuqsonlarni tanqid qilayotganini kuzatish mumkin:

*Butun olamda eng a'lo kalishdur,
Kiyar odamg'a xo'b zebo ravishdur.
Nishoni ushbudur: tumor tamg'a,
Triugol'nigin ma'lum bilishdur.*

Shoir lirik qahramoni uchun kalishning yengil poyafzal ekanini, issiq bo'lgani uchun jonga orom berishini, qish faslida go'yo unga davo bo'la olishini keltiradi:

*Engiltak, issig'u ko'p jonga orom!
Davo har fasli loyu da'fi qishdur.
Chapak cholg'ay go'daklardek sochib loy,
Demas to'n shohi xoh kimxob kalishdur.*

Shoir she'r so'nggida kalishning salbiy jihatlarini, ya'ni oyoqqa qadoq solishini, to'piq va panjalar yara bo'lishini aytib o'tadi.

Sidqiy Xodayliqiyning ushbu mavzudagi she'ri muxammas shaklida bitilgan bo'lib, u Xislat g'azaliga bog'langan. Muxammas Zavqiyning yuqoridagi she'ri bilan g'oyat o'xshash, biri

¹ Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. 64-65-бетлар.

ikkinchisini g'oyaviy va mazmuniy jihatdan to'ldiradi. Bu muxammasda ham lirik qahramonning nochor, himoyasiz, kambag'al, bechora qiyofasini ko'ramiz:

*Har damda ming balog'a bo'lg'on duchor kafshim,
Yuz joyidin yamalg'on choruqvor kafshim,
Kiymoqq'a tavba qildim emdi dubor kafshim,
Erdi ayog'larim'a ko'b tangu tor kafshim.
Siqtiyu qildi oxir yurmoqq'a zor kafshim.*

Kovushning nobopligi, ya'ni yuz joyidan yamalgani, kiyishga tavba qilishdek holda ekanligi, oyoqqa ko'b tangu torligi, oyoqni siqishi shoir yashayotgan hayot manzaralaridir. Mazkur poetik turkumlar yumor pafosi bilan sug'orilgan bo'lsa da, uning zamirida achchiq kulgu yotadi. Shoir kovushning tashqi ko'rinishini tavsiflaydiki, bu lirik qahramonning aynan ko'rinishiga mutanosib keladi:

*Eskib oxir, uzuldi charmini toru pudi,
Emdi yetar ziyoni, bo'lg'usi qayda sudi,
Ko'zumg'a yaxshiroqdur ko'runmasa vujudi,
Ustodin olgonimda erdi ajab namudi,
Bosmoqq'a aylar erdim tufroqq'a or kafshim.*

Kovush qadrlı bo'lsa da, u eskib, charmi uzilgan. Egasining o'z poyafzaliga qarab "ko'zimga ko'rinmasa yaxshi edi" deyishi bu ham nochorlikning namunasi. Buni shoir o'ziga xos ifoda bilan "bu kovush bilan tufroqni bosishga or deb bilaman" deb yozadi. Xalqda "do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi" kabi matal bo'lganiday, shoir "agar gap so'zga qolsam buning sababi kovushimdir" degan fikrlarni keltiradi:

*Kafshimdan erdi, bo'lsam har yerda qilu qolim,
Qotig' bosarg'a yerg'a kelg'ay edi vubolim,
Boqib yuzig'a har dam xushnud o'lurdi holim,
Yo'l uzra yurganimda ilkimda ro'ymolim,
Artar edim damo-dam bo'lsa g'ubor kafshim.*

Keyingi bandda kovushning tashqi holati nochorligi tasvirlanadi, uning charmi ilgari qattiq bo'lgani, "sarpanjasi (ustki qismi) muloyim (yumshoq) ekani, kiyishga qulayligi, egasining kiyganda halovat topishi, yangiligida izzati bor bo'lgani, endi esa eskib qadri ketganligidan achinishi hislari beriladi. Kovushning yomg'ir yoqqan vaqtida suvga to'lib qolishi bayon etiladi, keyingi misralarda esa uning duch kelgan balchiqqa o'zini tashlashi tashxis san'ati orqali berilgan:

*Yoqqonda to'lg'ay erdi yomg'ur suyiga jiq-jiq,
Tashlar edi o'zini ko'runsa qayda balchiq.
Har dam ushbu sababdin ko'nglum bo'lur edi ziq,*

*Dastaklari bosildi, bir yong'a bo'ldi qiyshiq,
Katta-kichik bu holda ko'rsa kulor kafshim.*

Har ikki shoir Sidqiy ham, Xislat ham muxammasda odamlarning yo'qchilik, nochorlik, qimmatlikdan aziyat chekayotganini tasvirlaydi. Demak, har ikki shoirning iqtisodiy holati, turmush tarzi o'zaro o'xshash bo'lgan. Muxammasdagi lirik qahramon tipiklashtirilgan obraz bo'lib, uning misolida butun Turkiston xalqi ahvolini ko'ramiz. Muxammas quyidagi mazmundagi band bilan yakunlangan:

*Yo'qluqni yo'q iloji — dardig'a manda, SHavkat,
Ushbu sababdin ortar har damda yuz malomat,
Bul kunda turfa bo'ldum beqadru, ketti qimmat,
Kiysam agar biror oy, man oni yona, Xislat,
El ichra qilg'ay erdi majnun shior kafshim.*

Aytish mumkinki, bu davr ijodkorlari lirikasidagi obrazlar real insonlar bo'lib, ular tasvirlagan voqealar shoirlarning o'z ko'zlari o'ngida ro'y bergan. Bundan tashqari poetik turkumlardagi obrazlar nafaqat shaxs, balki narsa, predmet va boshqa buyumlar hamdir.

Furqat, Muqimiy, Zavqiylarning maktub shaklidagi she'rlari yana bir poetik turkumni tashkil etadi. Bu maktublar qadrdon do'stlarning o'zaro yozishmalari bo'lib, mumtoz adabiyotdagi noma janridan ham, "noma" qo'shimchasi bilan yuritiladigan memuar, epistolyar xarakterdagi asarlardan ham farq qiladi. Ushbu "maktubot"lar orqali shoirlarning o'z hayotlarida qaerda sayohatda yoki safarda bo'lganliklaridan dalolat beradi. Bu esa ijodkor tarjimai holi, hayot yo'li, ijodiy faoliyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muqimiyning "Assalom" radifli g'azali she'riy maktub shaklida bo'lib, 35 baytdan tashkil topgan. Maktub uning Toshkentdalik vaqtida yozilgan.

*...Toshkandga kelganimdan to bu muddatlargacha,
Ko'zga uyqu kechalar kelmaydi chandon, assalom.*

*Xotirim noshod, ta'bim lanj, g'ash doim dilim,
Ishtaho kam, quvvatim yo'q, zarra darmon, assalom.*

Unda an'anaviy obrazlardan Hizr obrazi uchraydi:

*Yurganu turgonda doim yoringiz Ilyos o'lub,
Suv desangiz Xizr tutsin obi hayvon, assalom.*

Xizr an'anaviy afsonaviy obraz bo'lib, xalq o'rtasida uni ko'rib bosh barmog'ini kim tutib turishga erishsa, barcha orzu umidlari ushaladi, degan tushuncha bor. Obi hayvon esa tiriklik suvidir. Tiriklik suvini Xizrning o'zi tutishi ham o'ziga xos badiiy ifodadir. Maktubda Mulla Yo'ldosh oxun, Eshonxon, Miyon hoji, Nasriddin xo'ja, Kalonxon, Mulla Ziyo, Xo'ja Sulaymon,

Hakimjon, Mirza Kamol, Ernazarbek kabi tarixiy shaxslar zikr etiladi. Ular Muqimiyning zamondoshlari bo'lib, Qo'qon yoki Toshkentda istiqomat qilganlar.

Ma'lumki, Furqat Turkiston o'lkasidan chiqib ketishga majbur bo'lgan. SHoir o'z yurtiga qaytish istagi bo'lsa-da, chor hukumati shoirning vataniga qaytishini istamagan. Xususan, Furqatning Yorkandda turib Nikolay Ostroumovga "Turkiston viloyati gazetisi" redaksiyasiga bir necha marta xat yozgani ma'lum. Uning "Bo'mbaydan xat", "Yorkand shahridan Toshboltuga xat", "Saboga xitob" kabi she'riy maktublari bor. Bu maktublarda shoirning o'z yoru do'stlarini sog'inganini, vatanidan ayriliqda yashash naqadar og'ir ekanligi, yurtini qo'msash tuyg'ulari aks etadi.

"Saboga xitob"da shoir Furqat o'z do'stlaridan 28 kishini nomma nom sanab, ularning ayrim tavsiflarini ham beradi. Masalan, Yusufboybachcha haqida quyidagi fikrlarni keltiradi:

*Qiyomatlik birodardur menga ul,
Har ishda yoru yovardur menga ul.*

Toshkentning Ko'kaldosh mavzesidagi Hoji A'zam va Ahmad xo'jalarni "Arastui zamona" deb aytadi. Sabo bu o'rinda vosita vazifasini bajarib, shoir unga murojaat qilarkan, endi Mirzo Xalilning oldiga borishini so'raydi. Undan so'ng esa gul bozoridagi qori Siddiqning huzuriga yo'l olishini aytadi. Qori Siddiq haqida shoir shunday to'xtalib o'tadi:

*Menga ul oshnoyi jonajondur,
Hazin jismim aro ruhi ravondur.
Hamisha xotirim pos tutgan,
Muruvvat bekamu beko's tutgan.*

Shoirning mazkur she'riy maktubi masnaviy shaklida yozilgan, 280 satrdan iborat. Shuningdek, maktubning umumiy mazmunidan shoir va uning do'stlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish mumkin. So'nggi baytlarda Furqat saboga qarab:

*Agar xat bersalar yoningda saqla,
G'alat aydim dilu joningda saqla, -*

deydi. She'riy maktubda mumtoz adabiyotdagi an'anaviy poetik obraz sabo qo'llanilgan. Agar noma janridagi asarlar ishqiy mazmunda yozilgan hamda yetakchi obrazlar yor, oshiq bo'lgan bo'lsa, Furqatning ushbu masnaviysida yoru do'stlar o'rtasidagi yozishma, sog'inchli salom xat singari shaklda namoyon bo'ladi. Xorazmiy asarining ikkinchi nomasida ham saboga murojaat etiladi. Furqat masnaviysidagi sabo obrazi vatanidan ayriliqda yashayotgan shoirning sog'inchli salomini vatanidagi do'stlariga yetkazuvchi vosita sifatida ko'rinadi. Bu she'riy maktub haqida adabiyotshunos B.Qosimov shunday yozadi: "She'r Istanbuldagi "Millat bog'i"ning ta'rif tavsifi

bilan boshlanadi. Shoir bu mashhur bog'ni kezar ekan, undagi "mardum" (kishilar)ni "xurram" (xursand) ko'rib, olis Toshkentdagi "yoru oshnolari"ni esga oladi"¹.

Furqatning "Yorkand shahridan Toshboltuga xat" nomli she'riy maktubida shoirning sabo bilan savol-javob qilgani keltiriladi:

*Tilar erdim sahar tavfi chaman esgan sabolardin,
Salomim yetkurib keltur xabar deb oshnolardin.*

*Dedi ul dam sabo: - Ey hajru g'urbatga asir o'lg'on,
Vafo umidini uzgil alardek bevafolardin.*

*Senga bo'lg'on qadimiy do'stlar avzoi degardur,
Mizoji muxtalifdur elni tag'yiri havolardin.*

Furqatning vatanidan yiroqlarda "g'urbat g'ami" bilan yurgani ta'sirchan misralarda aks ettiriladi:

*Vatanning ishtiyoqin tortaram g'urbat g'ami birlan,
Turub erdim qutulmoy g'ussau ranju inolardin.*

Shoir o'zining vatandosh do'stlari, hamshaharlari Muqimiy, Nisbatiy, Muhyi, Zavqiy larni mehr bilan tilga oladi:

*Demishsan Muhyi, Zavqiy salomat, shukr xush bo'ldim,
Xudo qilg'oy salomat asrabon har xil balolardin.*

*Muqimiy, Nisbatiyni nisbatini men senga berdim,
Alardek bo'lma, lekin o'zni to'xtatgil hijolardin.*

Furqat o'z manzumasida madaniy yangiliklardan biri telefon, telegrafni tilga oladi:

*Ukomiz Ermuhammad sim aro tilmoch o'lub er mish,
Yomon ko'z din xudo mahfuz qilg'oy ham qazolardin.*

Avvalgi maktublarda bo'lganidek, o'nga yaqin do'stlarining nomini shoir zikr etadi.

Zaviy ijodiy merosida "Zavqiyning Furqatga maktubi" sarlavhali she'r bor. U to'rtlik shaklida bo'lib, Furqatning yiroqda ekanligi shoir tomonidan achinish bilan qayd etiladi:

*Jonimg'a tob soldi so'zi firoq Furqat,
Kel, kim xarob qildi bu ishtiyoq Furqat.
Qosid yetur payomim, har yerda topsang oni,
Zavqiyni toqatini ko'p qilma toq Furqat.*

¹ Қосимов Б.Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. — Тошкент: Маънавият, 2004. — 118-бет.

Zavqiyning ikkinchi maktubi Furqatga javob tarzida bitilgan.

Poetik turkumlar tarkibida bir necha shoirlarning “Maktab” radifli asarlar mavjud. Karimbek Kamiyning “Dar ta’rifu tavsifi ilm” she’ri “Toliboni ilma dasturul-amal” deb mashhur bo’lib, ya’ni ilm toliblari uchun dasturi amal singari bo’lgan.

*Maktabki, koni ilmu hayovu adab erur,
Maktabki, fayz chashmasiyu fazli rab erur.
Maktabki, obro’yu kamola sabab erur,
Maktabki, favqi har shayyu kulli nasab erur.*

Shoir maktabni ta’riflar ekan, shuning barobarida xalqni ma’rifatga undaydi. Misralar boshida keltirilgan “maktab” so’ziga alohida urg’u berish uchun anaforadan foydalangan. Misralar boshida takror keladigan so’zlar anaforadir. Ma’rifatparvarlik adabiyotining yana bir vakili Avaz O’tar ijodiy merosidagi she’r maktab radifli g’azaldir. Unda shoir xalqning baxtli kun kechirishi, farovon hayotga erishishining talabi ma’rifat ekanini uqtiradi:

*Ochinglar millati vayronni obod etgusi maktab,
O’qusin yoshlarimiz, ko’nglini shod etgusi maktab.*

“Maktab, Avaz fikricha, vayron millatni obod qiluvchi, millat inqirozining oldini oluvchi, jahlu nodonlikni yemiruvchi vosita. Avaz xalqning og’ir ahvolini, uning ma’rifat nurlaridan bebahra ekanini ko’radi”¹.

Xorazm shoirlaridan Ahmad Tabibiyning ma’rifat radifli g’azalida ilmu ma’rifatga ega bo’lish targ’ib etiladi. “Ahmad Tabibiy ijodida ma’rifat mavzui, ma’rifatparvarlik g’oyasi muhim o’rin egallaydi. Shoir hayotni tubdan yaxshilovchi, jamiyatni, mamlakatni qoloqlikdan, zulmatdan qutqaruvchi, xalqni farovon hayotga yetaklovchi yo’l – ma’rifat deb bildi”².

*Kimdakim ahli jahondin bor ilmu ma’rifat,
Qilg’usidur oni barxurdor ilmu ma’rifat.
G’aflatu jahl uyqusiga g’arq bo’lg’on shaxsni
Fayz birla ul qilur bedor ilmu ma’rifat.
Ey birodar, olimu orif bo’lurg’a jahd qil,
To yeturgay ko’nglungga anvor ilmu ma’rifat.
Ilm birla ma’rifat ta’limini tark etmagil,
Hosil et borincha jon, takror ilmu ma’rifat.*

“Jadidchilik, mohiyat e’tiboriga ko’ra, maorifni tubdan isloh etishdan boshlangan bo’lsa-da, mazkur davrda yuzaga kelgan har bir ijtimoiy-siyosiy hodisa jadidlar ta’siri doirasida bo’lgan. To’la

¹ Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.- 59-бет.

² Қосимов Б.Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 90-бет.

ishonch bilan aytish kerak, usuli jadid maktablari ochish zaminida ham siyosiy masala - istiqlol, millatni mustamlaka zulmidan ozod qilish, taraqqiy topgan, farovon millatlar qatorida ko'rish g'oyasi hukmron edi"¹, deb yozadi adabiyotshunos U.Dolimov. Ma'rifatparvarlik adabiyoti g'oyalari davom etgan jadid she'riyati vakillaridan Abdulla Avloniyning maktab mavzusiga doir to'rtlik bor:

*Maktab – xazinai adabu ilmu izzating,
Maktab – bog'i jannati firdavs, ne'mating,
Maktab kishini jahlu daniydan qilur xalos,
Maktab kalidi kabai qalbu zakovating.*

XIX asr II yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyotning lirik qahramoni o'zidan oldingi davr lirik qahramonidan farq qilishini yuqorida aytib o'tildi. Ma'rifatparvar shoirlar: "Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin og'ir ahvol o'zgarmaganligini ko'rdilar, ularning mavzusi zulm va haqsizlikka qarshi kurash, tutqunlikni qoralash va erksevarlik, tanqidiy ruhning yetakchiligi, mustamlakachilik va jahongirlikka qarshi turuvchi inson sezgisini kuylashdir; shoirlar kelajakka umid bilan qaradilar (Muqimiy "bir yaxshi zamon" kelishini orzu qildi, Furqat "bechorani qil ozod"; dedi Zavqiy jahon ahlini zolim haddidan ozod" bo'lishiga ishondi; Avaz oftobning bulut ostida qolmasligini aytdi)"².

Ma'rifatparvarlik davri she'riyatida ijodkorlar tomonidan birinchidan, mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlar tadrijiy rivojlantirildi, shuningdek, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqeliklar natijasida yangidan yangi obrazlar yaratildi.

II.2. SHE'RIY TURKUMLARDA IJODKOR POETIK TAFAKKURINING IN'IKOSI

XIX asr II yarmi va XX asr boshlarida yashagan ma'rifatparvar va jadid shoirlar dunyoqarashida xalqni ma'rifat bilan ozodlikka olib chiqish g'oyasi bor edi. Sobiq sho'ro davri adabiyotshunosligida XIX asr II yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyotga nisbatan "demokratik adabiyot" nomini qo'llash an'ana edi. Biroq, mustaqillik mafkurasi g'oyalari kelib chiqib shuni

¹ Долимов У. Жадид педагогикаси. – Тошкент, 2007. – 5-бет.

² Адабий турлар ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1992. – 88-бет.

aytish mumkinki, adabiyot, u qaysi davr va bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar xalqchil bo'lishi, ya'ni tom ma'noda u xalqning orzu umidlari, istaklari, ideallarini o'zida aks ettirishi kerak. Bugungi kunda mazkur davrga nisbatan "ma'rifatparvarlik adabiyoti", "ma'rifatchilik adabiyoti" kabi istilohlar" qo'llanilishi ommalashdi. Ilgari "demokratik adabiyot" tadqiqotchilari ma'rifatparvarlik adabiyoti vakillari haqida so'z yuritir ekan, ularning ijodi va faoliyatida cheklanganlik borligi, "ezuvchi sinfga qarshi kurashish" g'oyasi bilan chiqmaganliklarini qayd etadilar.

Bizning fikrimizcha, ma'rifatparvarlik adabiyoti vakillari ozodlikka erishishning yo'liga asta-asta o'tishni afzal bilganlar. Chunki bir guruh ziyolilar, shoirlar, ma'rifatparvarlarning kuchi bilan siyosiy hokimiyatni o'zgartirish, boshqa tuzum va boshqa idora usuliga o'tib bo'lmasdi. Xalq esa asriy zulmlar, bosqinlar natijasida tushkunlik, qoloqlik, faoliyatsizlik kayfiyatida edi.

Bu davr shoirlari faoliyati haqida adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ma'rifatchilik adabiyoti, garchi o'z oldiga tuzumni o'zgartirish, siyosiy mustaqillikka erishish singari maqsadlarni qo'ymagan bo'lsa ham, o'zini xalq hayoti uchun javobgar deb biladi. Komil, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Anbar otin singari ko'plab ijodkorlarning dolzarb ijtimoiy yo'nalishdagi ko'plab asarlari shundan dalolatdir"¹.

Shoirlar, adabiyotshunos ta'kidlaganidek, o'z oldilariga "siyosiy mustaqillikka erishii maqsadlarini" qo'ymagan bo'lsa-da, biroq aksariyat she'rlari aynan ijtimoiy siyosiy mavzuda ekanligi xarakterlidir. O'zbek adabiyotining hech bir davri biz zikr etayotgan davrdagidek ijtimoiylashmagan. Hatto lirik asarlar, ishq muhabbat mazmuni yetakchi bo'lgan g'azalu, muxammas, musaddasu murabbalar qatida ham obrazlarning ijtimoiy g'oyani ifodalashini ko'ramiz. Bu davrda realizm o'zining rivojlanish bosqichiga ko'tarilganini qayd etish o'rinlidir.

Muqimiy ijodida yumoristik va satirik mazmundagi poetik turkumlarga mansub she'rlar talaygina. Bularning lirik qahramoni orqali shoir jamiyatdagi nobop hukumatni, noto'g'ri siyosat ishlarini, idora usullarining adolatsizligi va shu tufayli oddiy xalqning ezilayotganligi ko'rsatiladi. Muqimiy ijodida "Ko'samen" radifli uchta she'r, Sidqiyning ana shu g'azallardan biriga yozgan muxammasi yumoristik mazmunda bo'lsa da, bu she'rlar davrdagi qoloqlik, nochorlikka ishora sifatida yangraydi. Muqimiy g'azalidagi lirik qahramon o'zining soqoli yo'qligidan noliydi, shu qusur uning yoshini bilishda ham halaqit qilishini e'tirof etadi.

*Sen yoshim so'rma, bilolmaysan, o'zim ham, shunchakim,
Katta-katta mo'ysafidlarga padarxon ko'samen.*

*Yoshgumon etma ko'rib aftim, soqolim yo'q uchun,
Mallaxondin qolgan eski qarri tallon ko'samen.*

¹Йўлдошев Қ. Ўзбек маърифатчилиқ адабиёти. / Ёниқ сўз. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 180 бет.

G'azalda keltirilgan ko'sa asli naychi ekanligi ma'lum bo'ladi. Sobir Abdullaning "Mavlono Muqimiy" romanida ana shu naychi obrazi bor bo'lib, uning prototipi hayotda bo'lgan. U Ismoil ota naychi bo'lib, Muqimiy boshliq Qo'qondagi adabiy mushoira davralarida ishtirok etgan. Butun Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan bu sozandaning ovozi Toshkentday katta shaharga ham yetgan. Sidqiy Xondayliqiyning Muqimiy g'azaliga maxsus muxammas bog'lashi ham bejiz emas. Muqimiy g'azalida yumor bilan bir qatorda hajv elementlari, zamonani tanqid qilish ohangi sezilib turadi.

*Naychilik bo'ldi falak bedodidin oxir ishim,
Yo'qsa, bir vaqtida surgan davri davron ko'samen.*

*Jag'larim Shaydonni dashtidek giyoh yo'q yap-yalang,
Engakimdin bir olo Mahram namoyon ko'samen.*

*So'rma mazmunini qil naydin qiyos ahvolimi,
Yozu qish har yerda mundog' sohib afg'on ko'samen.*

*Bir faqirdin bir paqirni, do'stlar, tutmang darig',
Bir duogo'yi Muqimiy men qadrdon ko'samen.*

Adabiyotshunoslar to'g'ri ta'kidlaganlaridek: "Mazkur g'azalda shoir o'z zamonasida san'at ahli og'ir qiyinchilikda yashayotganligini ko'rsatadi. Garchi bu g'azal (va shu sikldagi boshqa g'azallar ham) konkret bir san'atkorga bag'ishlangan bo'lsa-da, shoir o'sha zamondagi barcha san'atkorlarni – sozanda, shoir va boshqalarni nazarda tutgan edi"¹. Muqimiy ko'saning tilidan o'z dardu hasratlarini bayon qilgan ekan, turgan shahri issig'ligidan O'sh va Aravon kabi salqin joylarga ketish xohishi borligi, o'z ehtiyojlari uchun, ovqat tayyorlashga un olishni xohlashi, biroq yonida biror tiyini yo'qligini aytadi.

*Ko'p bo'g'ulganman, havo issig' ketarman erta-kech,
Daf'i savdo qilg'ali O'shu Arovon ko'samen.*

*Uyg'a ovqoti uchun un-mun olib bermoqchiman,
Bir tiyin yo'q, do'stlar, yonimda hayron ko'samen.*

Shoirning maqsadi bu shaxsning ko'saligini nuqson deb emas, balki uning ijtimoiy iqtisodiy holati yomonligiga urg'u berishdir. Uning ahvoli shu qadar yomonki, xatto uning janozasiga birov xabar berishi ham shart emas, ya'ni ertalab u ochlikdan jon taslim qilib bo'lgan bo'ladi.

¹ Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. 65-бет.

*Gohi bexud, goh xud holimg'a yig'lab, goh kulub,
Alg'araz kim bir nafasda necha alvon ko'samen.*

*Erta birlan bor janozamg'a xabar darkor emas,
Osh yemay yotkan kechim, albatta, o'lgon ko'samen.*

*Xayr mardumda, Muqimiy, kam qolib tushmay chaqa,
Nay cholurg'a kolmagan bir zarra darmon ko'samen.*

Sidqiy Xondayliqiyning “Muxammasi bar g'azali Muqimiy” she'rida Muqimiy ilgari surgan fikrlar, masalalar tadrijiy davom ettirilganini ko'ramiz. Muxammas bog'lash shoirdan yuksak mahoratni talab qiladi. Odatda elda mashhur bo'lgan yoki muxammas bog'lovchining e'tiborini qozongan, diliga o'rinishgan g'azalga muxammas bog'langan. Demak, Sidqiyning Muqimiy g'azaliga muxammas bog'lashi avvalo unga bo'lgan ehtiromi, g'oyaviy qarashlarining bir biriga hamohangligi sabablidir.

*Bori mehnat ostida bir turfa nolon ko'samen,
Ham faqiru notavon bebargu somon ko'samen,
Darbadar doim kezib, muhtoji bir non ko'samen,
Goh, soqol qadrio'tub, ko'nglumda armon ko'samen,
Haftada oyinag'a boqqanda hayron ko'samen.*

Sidqiy Xondayliqiy ushbu muxammasda mavjud jamiyatning qoloq ahvolini yanada bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlaydi.

“Makaylik” turkumiga doir she'rlar Muqimiy, Furqat, Zavqiy ijodiy meroslarida mavjud bo'lib, “Makaylik” Muqimiy zamonida zo'r shuhrat qozongan san'atkorlardan biri. Uning asl ismi Mamajonbek bo'lib, Qo'qonga yaqin “Makay”, “Makayiston” degan joydan chiqqanligi uchun “Makaylik” nomi bilan shuhrat qozongan. Adabiyotshunos G'ulom Karimovning keltirishicha, Muqimiy Makaylik bilan uzoq yillar davomida do'stona aloqada bo'lgani kabi Furqat, Zavqiy kabi shoirlar ham bu mashhur san'atkorga bag'ishlab qator she'rlar yozganlar. Makaylik faqat Qo'qonda emas, Farg'ona vodiysida, shuningdek, Toshkentda ham shuhrat topgan va ko'p shaharlarga gastrol bilan borgan¹. Muqimiyning bu she'ri g'azal janrida yozilgan bo'lib, uning mazmunidan Makaylikning adabiyot va san'atga oshno inson ekanligi namoyon bo'ladi:

*Vaqtiki sanga bo'ldim oshno man Makaylik,
Chun lola qonga to'ldim afgorman Makaylik.*

¹ Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – 458-бет.

*Boshlarda sho'ru savdo, yo'q sanda zarra parvo,
Lutfu karam bo'lakko, man xorman Makaylik.*

*... "Ushshoq", "Bayot"ga diltang, yoqmaydi o'zga ohang,
Tinglay o'zing o'qisang, "Gulyor"man Makaylik.*

*Ma'lum bo'lubdur holim, ketkay Muqim xayolim,
Yo'qkim pul ila molim, bekorman Makaylik.*

Muqimiy boshliq Qo'qondagi mushoira davrasida ko'plab shoiru san'atkorlar qatnashganlar, bu davrada she'rxonlik musabaqasi, o'ziga xos adabiy suhbatlar bo'lganki, shoirlar bir-biridan ijodiy ta'sir olib, bir mavzu doirasi, bir g'oyaviy yo'nalishda asarlar yaratganlar.

III BOB. POETIK TURKUMLARDA USLUB VA MAHORAT MASALASI

III.1. POETIK TURKUMLARDA BADIY TIL

Badiiy asar tilini o'rganish masalasi hamma davrlar uchun dolzarb bo'lib kelgan. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida maydonga kelgan she'riy asarlarning tilini o'rganish bevosita jamiyatdagi voqea va hodisalar bilan bog'liq. Chunki tilda muayyan jamiyatning, millatning, xalqning ruhi, qiyofasi aks etadi. "Badiiy matnning tili uning mavzui, muammosi va g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Til orqali obraz va manzaralar yaratilar ekan, ularning mohiyatini ochib ko'rsatadigan so'z va iboralar tanlanadi, asl va ko'chma ma'noli so'zlar qo'llanadi, ularning sinonim va antonimlaridan, umumxalq tilining gap qurilishi usullaridan,

arxaizm va jargonlaridan foydalanadi”¹. Biz soʻz yuritayotgan davr sheʼriyatining oʻziga xos jihatlari shundaki, adabiyotimizdagi anʼanalar davom etgani holda, janr va uslubda, shuningdek, badiiy asar tilida ham oʻzgarishlar, yangilanishlar boʻldi. Masalan, shoir Furqatning “Muxammasi Muhammad Xudoyorxon tilidan” nomli muxammasi Alisher Navoiy yoki boshqa mumtoz adabiyot namoyandalarining devonlarida uchraydigan soʻzboshini eslatadi: “Fargʻona qalamravining farmonravosi Sayid Muhammad Xudoyorxon marhumekim, nechand yil sekkai davlat aning shohlik nobinda erdiva goʻsi saltanati jahonpanoliq bomida banogoh hazrati ahkom al-ah-komayn farmoni birla davlat humosi aning boshidin soya koʻtarib, raxti zavtiyasidin chiqib, mehnat bodiyasiga tushgani xususida gʻurbat vayronasida oʻzini gʻarib koʻrub, charxi kajraftomi(ng) bedodidin shikoyat qilib, asosi davlat va xidomi xashamatlarini yod aylab, bir muncha hasratangez va nadomatomezlik birda degan soʻzlarini istimoʻ qilgon kishilar tahriridin musavvada aylab, ul marhumning oʻz tilidan kamina Zokirjon Furqat muxammas shaklida ado qildim”. Muxammas soʻzboshisidagi “qalamravi”, “nechand”, “sekkai davlat”, “goʻsi saltanat”, “jahonpanoliq bomida”, “hazrati ahkom”, “raxti zavtiya” kabi birikmalar arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlardir. Mumtoz adabiyotimizdagi aksariyat asarlarda forsiy va arabiy soʻzlarning qoʻllanishi tabiiydir. Bu davrda mumtoz adabiyotimiz tili va uslubida bitilgan sheʼriy asarlar Muqimiy, Zavqiy, Kamiy kabi boshqa ijodkorlar merosida ham koʻplab uchraydi.

“Badiiy til – badiiy asar tili, soʻz sanʼatining asosiy quroli, badiiy adabiyotning obraz yaratish vositasi; poetik til, badiiy adabiyot tili kabi shakllarda ham ishlatiladi”².

Mumtoz adabiyot tilining asar tili sifatida bu davrda mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy hayot hodisalari tufayli paydo boʻlgan narsa va tushunchalar, ularni anglatadigan soʻzlarning isteʼmolga kirib kelishi va badiiy asarlarda qoʻllanishi kuzatiladi. Agar Alisher Navoiy asarlarida “*rus*”, “*oʻrus*” soʻzlari xalq maʼnosida qoʻllangan boʻlsa, biz soʻz yuritayotgan davr sheʼriyatida bu soʻz matn tarkibida chorizm istilochilarini anglatgan. Misol uchun, “*oʻrusning domiga tushtum*”, “*rusiy zaboni*”, “*oʻrus urushi*” kabi soʻz birikmalarining qoʻllanishini uchratish mumkin. “Zamonadan shikoyat” mazmunidagi poetik turkumlar sirasiga mansub Ibrat manzumasida soʻzlashuvda qoʻllanadigan “fiyon”, “zakunchi”, “desyat”, “traktur” kabi soʻzlar uchraydi.

Rus tiliga xos boʻlgan “-kiy” qoʻshimchasining qoʻllanishini “Andijon zilzilasi” haqidagi poetik turkumlarga oid sheʼrlarda kuzatamiz. “Turkiston viloyatining gazetasi”ning 1903-yil 5-sonida Fayoz taxallusli shoirning sheʼri soʻzboshisida “*ruski-kitayski bonka*” birikmasi qoʻllangan. Bu davrda rus chorizmi orqali Turkiston oʻlkasiga jahon madaniy hayotidagi yangiliklar ham kirib keldi. Ijtimoiy hayotda paydo boʻlgan narsa, tushunchalar anglatgan soʻzlar ham isteʼmolga, shu bilan birga badiiy asar tiliga ham oʻzlashtirildi. “*Ruski-kitayski bonka*” birikmasidagi bank atamasi, yaʼni pul saqlanadigan va pul muomalasi olib boriladigan joyni

¹Ўринбоев Б. ва бошқ. Бадийий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т., 1990. – 23-б.

²Қуроноф Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. 52-бет.

anglatuvchi soʻz “bonka” shaklida qoʻllangan va u davr uchun yangi hodisa, yangi soʻz edi. Shoir Zavqiy sheʼrida esa hozirgi tushunchamizdagi “seyf” soʻzi oʻziga xos tarzda “sanduqi ohanin” deb atalgan.

Bu na aql emish, bu na hush emish, bu zamona mardumini koʻrung,

Bir oʻrusni sanduqi ohanin debon, axchasin anga soladur.

Milliy uygʻonish davri adabiyoti vakillari ijodiga Yevropadagi madaniy, maʼrifiy va taʼlim sohasidagi yangiliklar ruslar orqali kirib keldi. SHu bilan birga rus tilidagi soʻzlarning shoirlar ijodida qoʻllanishi ham kuzatiladi:

Oʻruscha maqtasa Zavqiy: xorosho,

Juvon, pir, mardu zan monandi ishdur.

XX asr boshlaridagi oʻzgarish va hodisalar adabiyotga ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Aytish mumkinki, ijtimoiy hayotdagi shiddatli buhronlar adabiyotda, sheʼriyatda boshqa uslub va janrni, badiiy tilni talab qilar edi. Mavjud hukmron mafkura nafaqat xalqning hayotiga, balki oʻzbek tiliga ham oʻzining salbiy tazʼiyq va zugʻumlarini oʻtkazgan edi. Asr boshlarida 20-yillarga kelib esa jadid ziyolilari tilni soflashtirish masalasini kun tartibiga qoʻydilar. Choʻlpon boshchiligidagi “Chigʻatoy gurungi”ning faoliyati esa shoʻro mafkurasi manfaatlariga ziddligi bois tazʼiyq ostiga olindi, “panturkist”, “panislomizm” nomi ostida ayblandi.

Maʼrifatparvarlik davri ijodkorlari asarlarida forsiy, arabiy soʻzlarning qoʻllanishi va mumtoz adabiyot tili, uslubidan foydalanish kuzatilsa, ikkinchi tomondan asarlardagi gʻoyalar, mavzularning yoritilishi keyingi avlod ziyolilari – jadid adiblar uchun zamin hozirladi.

Badiiy matn tarkibida begona, oʻrinsiz koʻrinadigan soʻz, soʻz shakllari, sintaktik birliklar prozaizmlar deb yuritiladi¹. Biz soʻz yuritayotgan davr adabiyotida prozaizmlar koʻplab qoʻllangan. Prozaizmlar varvarizmlar deb ham yuritiladi. XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotiga Rossiya orqali Yevropadan koʻplab madaniy yangiliklar, shu bilan birga tushuncha va hodisalar ham kirib kelgan. Ularni anglatgan soʻz va soʻz birikmalari ham lugʻat sostavidan mustahkam oʻrin ola boshlagan. “Adabiyotda anʼanalar, xususan, badiiy til anʼanaviyligi kuchli boʻlgan davrlarda badiiy matnga odatiy muloqotga xos nutq birliklarining kiritilishiga jiddiy kamchilik deb qaralgan. Bunday munosabat nasr badiiy nutqning nazm bilan teng huquqli shakli sifatida kechroq tanolingani, poeziya bilan proza bir-biriga keskin qarshi qoʻyilgani bilan izohlanadi”².

Poetik turkumlarda prozaizmlarning keng qoʻllanishi davrdagi ijtimoiy hayotning tubdan oʻzgarganligi, jamiyat ongidagi yangiliklar hamda ularning adabiyotdagi akslanishi bilan izohlash mumkin.

¹Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. –235-б.

²Oʻsha asar, oʻsha sahifa.

Zavqiyning “Dar mazammati zamona” she’ri garchi g’azal shaklida yozilgan bo’lsa-da, u oson o’qiladi, unda murakkab timsollar, ramzlar yo’q, uni o’qish oson.

*Charxi kajrav, shum zamona illati qilgach asar,
Ahli donish ko’zlarig’a tiyra bo’ldi ro’zlar.*

Baytda teskari aylanuvchi falak va shum zamonadagi illatlar ahli donish, ya’ni aqlilar, ziyolilarga ta’sir qilib, ko’zlari qorong’ilashdi, ya’ni ro’z (kun) tiyraga (qoraymoq) aylandi. “Charxi kajrav”, “ahli donish”lar forsiy izofa bilan kelgan, qora so’zini anglatuvchi “tiyra” so’zi qo’llangan.

*Bu shahar fisqu fujurdin bo’ldi badbo’ykim, ko’ring,
Ko’pligidin pul egasi, (dumaloq) qo’ng’uzlar.*

Puldorlarning ko’plab pul saqlashi natijasida shaharni badbo’y hid bosgani aytiladi. Shu bois shoir boylarni, ya’ni sahovatsiz, loqayd sarmoyadorlarni “dumaloq qo’ng’iz” deb ataydi.

*Ko’p mashaqqat bo’ldi elga o’g’rilarni(ng) vahmidan,
Hech bir jon uxlayolmas yakkayu yolg’uzlar.*

*Molu jong’a ko’z tikib, to’plandi chor atrofidin,
Uyma-uy bosqin yasab olg’ur qaroqchiduzlar.*

*O’ldi ko’plar beajal, nomus bo’ldi poymol,
Qiz anodin ajralibkim, bo’talardek bo’zlar.*

*Tavba deb, Zavqiy yaqongni ushla, bo’lg’il ehtiyot,
Ajdahodek komini ochganda yalmog’uzlar.*

Keltirilgan she’riy parchada o’g’rilar vahimasi shaharni tutib ketgani, ularga birov bas kelmagani, odamlar kechasi qo’rqib uxlolmay chiqayotganlari bayon qilinadi. O’g’rilarning uyma-uy narsalarni olishlari, qaroqchilik qilishi ta’kidlanadi. Shoir shu o’rinda “qaroqchiduz” so’zini qo’llagan. Qaroqchilarning beshafqatligi, odamlarni begunoh o’ldirganliklari, ularning ma’naviy qiyofasi ham tuban ekanligi quyidagi misralarda berilgan:

*O’ldi ko’plar beajal, nomus bo’ldi poymol,
Qiz anodin ajralibkim, bo’talardek bo’zlar.*

“Til badiiy matnning mazmunini ro’yobga chiqaruvchi, kitobxonga g’oyaviy-hissiy ta’sir qiluvchi birdan bir vositadir. Badiiy tilning asosiy xususiyati tasviriylilik va emotsionallik

hisoblanadi. Badiiy matnlar tili tabiat manzaralarini va inson qalbini butun murakkabligi bilan aks ettiradi. Boshqacha qilib aytgnada, soʻz sanʼatkori hayotning hamma qirralarini obrazli til vositasida tasvirlaydi¹”

Poetik turkumlarga mansub Ibratning zamonadan shikoyat mavzusidagi sheʼri tili sodda, tushunarligi seziladi.

*Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon boʻlubdur,
Beandisha xaloyiq feʼli yamon boʻlubdur.*

*Olim bila faqirda zuhdu amal boʻlunmay,
Yoinki amri maʼruf goʻyo nihon boʻlubdur.*

*Shayxlarni(ng) xonaqosi qolmay ani baqosi,
Bir-birin shikva qilmoq ul ham tamom boʻlubdur.*

*Madrasalar ichinda koʻb - fitna birla shoʻrish,
Har kunda oʻn xil urush, oq salla non boʻlubdur.*

*Bermac zakot boylar, sandiqqa fulni joylar,
Chiptau necha toylar, soʻz amirkon boʻlubdur.*

*Dehqon eli bilingiz, xirmonni kechga olgʻay,
Bir dona xayr qilmas, oxir zamon boʻlubdur.*

Shoir yon atrofdagilarga murojaat qilib “dahr eli” soʻzini qoʻllagan. Keyingi oʻrinda “olim” va “faqir” soʻzlari zid maʼnoni ifodalaydi. Shayxlarning notoʻgʻri ishlari va qilmishlari, gʻiybat, yolgʻonlarga berilib ketishi aytib oʻtiladi. Bu oʻrinda tanazzulga yuz tutmoq, odamgarchilikdan chiqmoq maʼnosini ifodalaydigan “tamom boʻlmoq” iborasini qoʻllaydi.

Ilmiy adabiyotlarda taʼkidlanishicha, soʻz borliqdagi mavjudot, hodisa, predmet va ularning belgi, xossalarini anglatuvchi til elementi, morfemalar va boʻgʻinlar sintezidir. Har qanday soʻz tovush va maʼno tomoniga ega boʻlib, u bir yoki bir necha tovush yigʻindisidan iborat boʻladi va shu tovushlar yordamida maʼlum shaklda talaffuz etiladi². Yuqoridagi sheʼrda esa “pul” soʻzi “ful” deb yozilgan. Aytish kerakki, har bir davrning oʻziga xos soʻzlashuv uslubi va talaffuz meʼyorlari boʻladi.

¹ Қўнғуров Б. ва бошқ. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. 24-бет.

² Ўринбоев Б. ва бошқ. Қўрсатилган асар, 25-бет.

Xullas, davr adabiyotida yaratilgan poetik turkumlarning badiiy tilini o'rganish muhim hisoblanadi. Chunki har bir ijodkor biror she'riy asar yaratar ekan, uning tasvir tamoyillari, so'z qo'llash va so'z tanlash usullari ixtiyoriy bo'ladi.

III. 2. INDIVIDUALLIK VA BADIY MAHORAT

Mazkur davr ijodkorlari lirik asarlarida ham, ijtimoiy siyosiy, hajviy tanqidiy, yumoristik asarlarida ham o'zlari yashab turgan muhitni bor bo'yicha tasvirladilar. An'anaviy ishq muhabbat mavzusi bilan bab barobar ijtimoiy lirika davr adabiyotida yetakchilik qildi. Asosan mavzu va g'oyaga e'tibor qaratildi. Shu o'rinda aytish kerakki, ma'rifatparvarlik va jadid adabiyotida badiiy jihatdan mukammal asarlar bilan bir qatorda badiiyati yetarlicha ishlanmagan sayoz asarlar ham paydo bo'ldi. Biroq, eng e'tiborli jihati zamonada dolzarb va o'ta muhim bo'lgan mavzularni qalamga olish asosiy maqsad bo'ldi.

Ma'lumki, "badiiy asar xoh katta, xoh kichik bo'lsin, u matnning tugallangan shakli deb, hayotning mustaqil bir parchasi, in'ikosi deb qaraladi"¹. Badiiy asarda hayot aks etarkan, ijodkor turli usul va shakllardan foydalanadi. Masalan, biz so'z yuritayotgan davr adabiyoti uchun xos jihat shundaki, muxammas janri yetakchi shakllardan bo'ldi. Chunki siyosiy hayot voqeliklarini kattaroq shaklda aks ettirish shoirlar uchun qulay edi. Ilmiy adabiyotlarda hayotni badiiy ifodalashda ijodkor shakl va mazmun, mavzu va g'oya, obraz va syujet, kompozitsiya va til elementlarini tanlashi, har bir muallif bu usullardan o'z dunyoqarashi, tushunchasiga qarab foydalanishi ta'kidlangan². Ko'rinadiki, har bir ijodkor asar asosini o'zi tuzar ekan, u yaratgan asarda shoirning individualligi namoyon bo'ladi. Asar muallifining individualligini vujudga keltiruvchi omillar sifatida quyidagilar keltiriladi:

1. Mavzu tanlash. Badiiy matnning mavzui uning predmeti bilan belgilanadi. Badiiy matnning predmeti esa inson hayotining turli tuman holati, kurashi, orzu umidlari, tabiatga, voqelikka munosabatidir.
2. Muammo tanlash. Ijodkor tomonidan hayotdan saralab olingan voqea hodisalar, unda qo'yilgan va aks ettirilgan muammolar matnni shakllantiradi.
3. Matn g'oyasi. Badiiy matnda g'oya unda tasvirlanayotgan kishilarning psixologiyasi, kurash va intilishlari, voqealarning va narsalarning mohiyati ichiga singib ketadi.

¹Ўринбоев Б. ва б. Бадий текстнинг лингвистик таҳлил. Тошкент: Ўқитувчи, 1990. 22 бет.

²Кўрсатилган асар, кўрсатилган саҳифа.

Shuning uchun badiiy matnning g'oyasi matn mazmuniga asos bo'lgan umumlashtiruvchi, hissiy obrazli fikrdir.

4. Har bir obraz xarakterining individual tasviri. Matndagi har bir obrazning xarakteriga xos belgilar madaniyati, kasbi, psixologiyasi, nutqi orqali ifodalanadi.
5. Yozuvchi tili. Badiiy matnning tili uning mavzui, muammosi va g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.
6. Ijodkor uslubi. Uslubda yozuvchining dunyoqarashi, u yaratgan matnlarning asosini tashkil qiluvchi g'oyalar, syujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari, tili va boshqalarida o'z ifodasini topadi¹.

Ijodkorning badiiy mahorati deganda, uning badiiy obraz yaratishda qo'llaydigan badiiy usullar, vositalarning matnda o'rinli qaror topishini tushunamiz.

Muqimiyning "Saylov" turkumiga kiruvchi she'ridagi ushbu baytda saylov jarayonlari musulmonlarni qiynab yuborganligi, ularning "rangini qahrabo qilgan"ligi quyidagicha ta'riflanadi:

*Taloshi joh aylab, ot chopib, olmay dame orom,
Musulmonlarni rangin ayladi chun qahrabo saylov.*

Zavqiyning she'rida esa tashbehning o'ziga xos ko'rinishi yordamida ikki kishining juda ham yaqin, qadrdon ekanligini "bir mag'zu po'st" deb aytadi:

*Tutib Shokirqoradek g'anidin do'st,
Ne do'st bo'lib baayni bir mag'zu po'st.*

"Qarz" turkumidagi Zavqiyning she'rida "zarra-ziyod", "kun-tun" so'zlari zid ma'noli bo'lib, antitezani hosil qilmoqda.

*Yo'q zarra najot hech, kun-tun ziyod o'lur,
Qo'sh-qo'sh tug'adur haftada yangi oyi qarz.*

Qarzning "tug'ishi" tashxis, ya'ni jonlashtirishdir. Tashxisning xususiyati shundaki, jonsiz narsa, buyum, hayvon, jonivor, tushuncha va hokazolarga insonga xos hatti-harakatlar, xususiyatlar ko'chiriladi. Har yangi oyda qarzning qsh-qo'sh tug'ishi tashxisdir.

Poezd haqidagi turkumiga doir Sidqiy manzumasida ham tashxisning yana bir boshqa shakli namoyon bo'ladi. Poezdning bahaybatligi haqida, uning jang maydoniga chiqishdan oldin boshiga mig'far kiyishi, og'zidan o't sochishi tashxis bo'lsa, poezd vagonlari ajdarga qiyoslanadi.

*Jang maydonida kiysa jangjo'y boshig'a xud,
Doimo boshig'a kiyg'ay qahr ila mig'far vagon.*

¹Ko'rsatilgan asar, 22 bet.

*Og'zidin o'tlar sochib yo'l qahramonin yutqoli
Hamla qilg'oy dam-badam andoqki bir ajdar vagon.*

“Fonus” haqidagi Muqimiy g’azalida xalq jonli so’zlashuvi, iboralar qo’llanganini kuzatamiz:

*Xotirda yo'q edikim, ko'zdin Muqimiy ketsang,
Zavqiy seni tilabdur bermak zarur fonus.*

“Ko’zdan ketmoq” iborasi qo’llangan bo’lib, tamsilni hosil qilmoqda. Karimbek Kamiyning “Temiryo’l” she’rida shoir qalam bilan suhbatlashadi. Bu usul savolu javob deb ataladi:

*Qalamg'a aytdim: «Ey jam'i zabondon,
Xaloyiqlarg'a bir so'z ayla e'lon.
Zamoni mozi birlan bu zamondin,
Gapurgil san o'zing ikki zabondin.
Burung'i asr qaydog' erdi, al'on,
Erur qaydog', ey kilki suxandon».
Dedi: «Ma'lumu ravshan aylayin men,
Eshitsang bul zamonu ul zamondin.
Qadim ayyom ko'b erdi mashaqqat,
Suubat, kulfatu ham ranju mehnat.
Qilay taqrir man yuzdin birisin,
Gumon qil hoh yolg'on, xoh san chin...*

Savolu javob – she’r misralarida ikki shaxs ko’rincha oshiq bilan mahbuba o’rtasidagi savol va javobni aks ettirish usulidir. Lirik asarlarda savol-javob ko’pincha bir-ikki misralarda ifodalanadi. Lekin boshdan oyoq shu usulda bitilgan lirik she’rlar ham uchrab turadi¹.

*Biri shulkim, o'zig'a hajni lozim
Ko'rubon bo'lsalarda yo'lg'a ozim.
Dili dog' erdi yo'lning mehnatidin,
Tani nosog' edi yo'l kulfatidin.*

Shoir temir yo’l kelishini ijobiy hodisa deb bilgan. Chunki uzoqni yaqin qilish, safarga yayyov emas, balki yangilik bo’lgan transport turi – poezdda borishni hamma ham xohlaydi. Shoir tasvirida ilgarigi hajga boruvchilarning qiyinchiligi keltiriladi. Yuqoridagi bandda “dili dog’ va tani nosog’” jumalari ichki qofiyani hosil qilgan.

*Piyoda yo suvora yo'l kezadur,
Balandu past, tog'u cho'l kezardi.
Yurardi xavf birlan turfa g'amnok,*

¹ Ҳоҗиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати.- Тошкент: Шарқ, 1999. – 61 бет.

*Ko'zida nam bo'lub, joni alamnok.
Ki, ul hin erdi yo'llar ko'b xatarnok,
Bo'lurdi rohzanlar anda safnok.
Etushmay maqsadi a'lolarina,
Tavofi ravzai Batholarina.*

Masnaviyda endilikda hajga borish qulaylashgani mamnuniyat bilan qayd etiladi. Shoir poezdning tashqi ko'rinishini ham tasvirleydi, uning tekis, bir yo'lda yurishi "taxti ravon", "obi ravon" deya tashbeh bilan aytilgan:

*Temir yo'l dema, bir taxti ravon de,
Yururda go'yo obi ravon de.*

Shoir Sidqiyning Xislat g'azaliga bog'lagan muxammasi kovush haqida bo'lib, uning yangi ekanligida izzat qilinganligi aytiladi. Egasiga qadrdon bo'lgan bir juft kovush nechog'lik zarurligini kitobxon anglaydi.

*Qasdi bilan tamosho, bo'lg'on chog'ida yer loy,
Qo'ymay ayog'din aslo, kiyg'ay edim yilu oy,
Ko'b qadrdon edilar mango bu ikki fattoy,
Fattoyi o'g'risidin yeshg'on yerimda qo'ymoy,
Tushganda takyalarig'a tanho yotor kafshim.*

Mazkur bandda ichki qofiyalar, ya'ni zulqofiyatayn mavjud. "Tamosho – aslo – mango – tanho" kabi so'zlar qofiyalanmoqda. Uchinchi misra so'nggidagi so'z to'rtinchi misraning boshida kelmoqda. Bu esa radd-ul-ajuz al as-sadr san'atini yuzaga chiqarmoqda. Bir xil ma'nodagi yoki shakldosh ikki so'zni baytning turli o'rinlarida keltirish san'atidir. Sharq adabiyotshunosligiga ko'ra bayt boshidagi bo'lak (rukn) sadr deb, oxiridagi bo'lak rukn esa ajz deyiladi. Ushbu san'at nomi "bir xil yoki shakldosh ikki so'zni bayt boshi va oxirida keltirish degan ma'noni ifodalaydi. Takrorlanuvchi so'zlarning o'zaro munosabati va o'rniga ko'ra bu san'atning yigirmaga yaqin turi mavjud.

Muqimiyning "Ko'samen" yumorida Majnun, Sulaymon obrazlari nomlari qo'llangan.

*Boraman savdo qo'zub, Majnun sifat fasli bahor,
Ko'zga xokin surmaka taxti Sulaymon, ko'samen.*

Talmeh – "nazar solmoq" she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish san'atidir. SHoiralar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Tohir va Zuhro" kabi qissalar, dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O'quvchi u

yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z oldida o'sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojeali taqdiri jonlanib shoir demoqchi bo'lgan g'oyani, fikrni, tuyg'uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi¹.

Sidqiyning Muqimiy g'azaliga bog'lagan muxammasida mubolag'a qo'llangan:

*Qismatim ro'zi azalda zo'rlik'idin keldi dur,
Quvvatim yo'q pashshacha, albatta mandin pashsha zo'r,
Tobu toqat manda yo'qtur to anga qilsam g'urur.
Yosh go'dak birla kurash tushsam, chil(l)akdek oshirur,
Suratim ko'rsang agar o'lguncha polvon ko'samen.*

Mubolag'a – “kattalashtirish”, “kuchaytirish” ma'nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir. Bu o'rinda lirik qahramonning o'zini “quvvatim pashshachalik ham yo'q”, “mendan pashsha zo'r” jumalari mubolag'ali tavsifdir. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'zi oldida yorqinroq gavdalanadi. Birinchi mubolag'ada belgi xususiyatlar kichraytirib berilmoqda. Mubolag'aning bu turi tafritdir. “Mendan pashsha zo'r” jumlasida esa g'uluvvdir. G'uluvv deb aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmagan tarzda tasvirlashga aytiladi.

Shoir muayyan belgi, holat yoki harakatlarni shu xil tasvirlar ekan, ularga ishonirish maqsadini ko'zlamaydi, albatta. Ammo bu xil badiiy manzaralar tasvirlanayotgan belgi, holat yoki harakatning eng yuqori darajasi haqida tasavvur hosil qila oladi, tasvirning noyobligi esa o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi².

Demak, yuqoridagilardan ko'rinadiki, ijodkorlar birgina hayot voqeasini tasvirlaganlarida ham o'z asarlarida turlicha so'z, ibora, obrazlarni turfa xil ifoda etadilar. Chunki borliqdagi bir xil voqelik bir necha shoir ongida uning saviyasi, dunyoqarashi, xohish-istaklariga ko'ra turlicha aks etadi.

XULOSA

Миллий уйғониш даври адабиёти ўзбек адабиёти тарихининг энг мураккаб босқичларидан бири ҳисобланади. Ўн тўққизинчи аср биринчи ярми ва йигирманчи аср бошларида Туркистон ўлкасига рус чоризми бостириб келди ва бу ерда ўзининг сиёсатини ўрнатди. Асрлар

¹ Ko'rsatilgan asar, 41-42-betlar.

² Ko'rsatilgan asar, 11-bet.

Milliy uygʻonish davri adabiyotida mavzusi va gʻoyasi, mazmun mundariyasi va boshqa xususiyatlariga koʻra poetik turkumlarga birlashadigan asarlar yaratildi. Bu asarlar asosan ijtimoiy hayot hodisalarini real aks ettiradi. Poetik turkumlarni tasniflashtirishda ularning mazmuni, gʻoyasi va janriy xususiyatlariga eʼtibor berildi. Bular quyidagilar:

1. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhayyir, Nodim, Ibrat, Sidqiy, Kamiy kabi ijodkorlar lirik asarlardan tashqari ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-taʼlimiy mavzularda bir turkumga birlashadigan sheʼrlar yaratdilar.
2. Ijtimoiy siyosiy mazmundagi poetik turkumlarda xalqni maʼrifatga chorlash, milliy oʻzlikni anglashga undash yetakchilik qiladi.
3. Hajviy yumoristik mazmundagi poetik turkumlarda Turkiston oʻlkasidagi nochor turmush tarzi, iqtisodiy tanazzul, maʼnaviyatning izdan chiqishi kabi masalalar yoritildi.
4. Jamiyat hayotidagi taraqqiyot yangiliklari va madaniy oʻzgarishlar ham shoirlar nazaridan chetda qolmagan. Poezd kelishi voqeasi, saylov, fonus kabilarning oʻlkaga kirib kelishi poetik turkumlarda tavsiflanadi.

Xulosa shuki, mazkur davr shoirlari oʻzlari yashagan muhitdagi voqea hodisalarini real va haqqoniy tasvirladilar. Ular yaratgan poetik turkumlar ijodkorlarning oʻzaro hammaslak, hamfikr bulganliklaridan dalolat beradi, ikkinchi tomondan ularga keyingi avlod ijodkorlari izdoshlik maqomida boʻldilar.

Mirzaeva Shoxistaxonning “Milliy uygʻonish davri adabiyotida poetik turkumlar” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi boʻyicha

Ilmiy ishlari roʻyxati

№	Maqola nomi	Chop etilgan jurnal nomi, joyi, sanasi	Hajmi
1	Oʻzbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari	Ilmiy amaliy anjuman materiallari Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti. 2013, 20 yanvar	0,1 b.t.
2	Poetik turkumlilik va anʼanaviylik masalalari	“Sharq mashʼali”. 2013. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti.	0,2 b.t.
3	Классификация поэтических циклов в узбекской литературе	Научно практическая конференция. “Молодежь и наука”. Невинномысск. РФР. 2013 г. 1 марта.	0,1 b.t.
4	Milliy uygʻonish mavzusi shoir qalamida	Ilmiy amaliy anjuman materiallari. Andijon, 2014. 24 aprelʼ	0,1 b.t.
5	Maʼrifatparvarlik davri sheʼriyatining ayrim til xususiyatlari	Ilmiy amaliy anjuman materiallari. Oʻzbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Andijon, 2014. 16 may.	0,1 b.t.
6	Turkiston oʻlkasiga poezd kelishi haqidagi poetik turkumlar	“Ilmiy xabarnoma”. 2014. Maxsus son.	0,2 b.t.
7	Тематика и художественные	Научно практическая конференция.	0,1 b.t.

	особенности поэтических циклов в узбекской литературе	РФР. 2014. 20 ноябрь.	
--	---	-----------------------	--

XULOSA

XIX asrning ikkinchi yarmida XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida an'anaviy poetika turkumlari yaratildi. O'zaro ham fikr va hammasi lakbo'lgan davr shoirlari umum toza adabiyotning turli janrlarida ijod qilib, zamonadagi muhim voqealarni she'riy asarlarida yoritdilar, ijtimoiy muammolarni qalamga oldilar, salbiy illatlarni hajv tigi' bilan fosh qildilar. Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Zoriy, Muhayyir, Nisbatiy, Kotib, Mushrif, Nodim kabi ijodkorlar lirik asarlardan tashqari ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy mavzularda she'rlari yaratdilar. O'sha davrda yoqalq qamanzur bo'lgan an'anaviy poetika turkumi gabirlashadigan she'rlar hofizlari tomonidan mahorat bilan kuylangan.

Qo'qonda adabiy harakatchilik mavjud bo'lib, bu yerga Farg'onaviy siyosiy va uning atroflaridan ham shoirlar, she'riyat muxlislari yig'iladilar. Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy kabi ilg'or shoirlar qatorida, Zoriy, Yoriy, Qoriy, Nisbatiy, Muhayyir, Nodim, Nayyiriy, Rojiy, Pisandiy, G'aribiysingari ijodkorlar davradan adabiyotiga o'z ijodlarini muhim hissa qo'shdilar. Qo'qon xonligining tugatilishi va o'ngg'o'zbek xoni Xudoyor xon saroyining tavsifi, xonning taxtdan ketishi,

vafotimunosabatibilanbirnechaijodkorlartomonidasosanmuxammasshaklidagishe'rlaryaratildi. Xudoyorxonhaqidagiqatormuxammaslarningyaratilishivaqo'shiqsifatidaijroetilishigashoirUsmonxo'jaZoriyasossoldi. Uning "AfsusnomaiXudoyorxonmuxammasiZoriy" she'rishuturdagi poetikturkumlarningyuzagakelishigaturtkiberdi. SHoirlardanFurqat, Kotib, Zavqiy, Muhayyirlarninghamso'nggixontaqdiridanqayg'uribmuxammaslarbitdilar.

Mumtozadabiyotjanrlaridanmuxammasgadavrshoirlariningko'proqmurojaatetishivabujanring takomilbosqichiga yetganikuzatiladi. Buningsababimuxammasshoirningijtimoiy-siyosiyqarashlarini, hayothaqidagifalsafiyfikrlarivatanqidiymulohazalariniifodalashuchunqulayshaklhisoblanadi. Qo'qondatovlamachiViktorAxmatovvaLyaxtinlarningqilmishlariMuqimiyboshliqshoirarniqalamoli shgaundadi. Buturkumshe'rlaruchunmuxammasjanrixarakterlidir. Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Zoriymuxammaslaridafiribgarlarningo'zlariginaemas, mahalliyboy, savdogarlarninglaqmaliklarihamtanqidqilinadi.

TabiiyofatlarningxalqboshigakeltirgankulfatiAndijonzilzilasingabag'ishlanganshe'rlardanamo yonbo'ladi. Muqimiy, Muhyi, Zoriy, Ibrat, Kamiysingarishoirlarozshe'rlaridaxalqningahvolinitasvirlab, bukulfatningsabablarinimadaekanigajavobizlaydilar.

Ijtimoiyhayotdagitexnikyangiliklarvao'zgarishlarhamshoirarnazaridanchetdaqolmagan. Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Toshkentshaharlarigaqurilganpoezdyo'lihaqidao'nlabijodkorlarturlijanrlardaasarlaryaratdilar. Kamiy, Ibrat, Sidqiylarningshe'rlaridapoezdningafzalliklari, uningtashqiko'rinishi, qulayligikabijihatlaravsiflanadi.

Turkistono'lkasidagimaorif, maktabsohasidagi yangiliklargabirnechaijodkorlarozmunosabatlarinibildiribshe'rlarbitishdi. Xususan, Furqat, Kamiykabilarning "Gimnaziya" mavzusigabag'ishlanganshe'rlarimavzusi, g'oyaviyyo'nalishijihatidanbirturkumgabirlashadi.

Ijtimoiy-siyosiy mazmundagishe'riyturkumlardantashqariishqiymavzudagishe'rlarningyaratilishihamaynansh udavradabiyotigaxos. ZoriyvaNodimlarning "Naylayin" radiflimusaddaslarishularjumlasidandir. Boshqashoirnlarninghamshumavzuvaradifdashe'rbitganlarihamehtimoldanholiemas.

Davrijodkorlariyaratganturkumasarlaxususidagixulosalarniumumlashtirishmumkin:

- Davradabiy hayotidan an'ano'lgan mavzularda yozilgan asarlar janri, uslubi, ruhi, yo'nalish jihatidan bir-biriga yaqinligi bo'sir nechaturkumlarga birlashadi.

-

XIX asr II yarmida XX asr boshlarida yashab ijodetgan shoirlar zamonadaro'yberayotgano'zgarishlar haqida, dolzarb mavzularda she'rlari yaratdilar.

-

Poetik turkumlarasosani ijtimoiy-siyosiy mazmundabo'lib, shoirlar real hayotdagiturlio'zgarishlarga hozirjavoblik bilan munosabat bildirdilar, ularning asarlaridareallikustuvorlik qiladi.

-

Jamiyatdagivoqea-hodisalarga hozirjavoblik bilan munosabat bildirgan shoirlari ijtimoiy-siyosiy jihatdan muhim mavzularda asarlar yaratdi.

Bu asarlaridan biri Xudoyor xontaqdir mavzusini qalamga olgan shoir Zoriy shunday turkum she'rlarning maydonga kelishiga asossoldi. Zoriyningushbuturkumlarga mansub asarlaribadiiyifodasi, uslubi, g'oyasi, mazmuni bilan shu turkumlarning muhim halqasini tashkil qiladi.

SHoirlar Turkiston o'lkasidaro'yberayotgan ziddiyatli ijtimoiy-siyosiy voqealarnio'zko'zibilanko'rdilar. Asarlaridamustabid tuzumsiyosatining jaholati, zulmi, adolatsizligini xolis baholab, badiiy tasvirladilar. Poetik turkumlar bir jihatdan shoirlarning badiiy tafakkur tarzinio'rganishda muhim bo'lsa, ikkinchidan, ularning davrdagivoqea-hodisalarga hozirjavob bo'lganliklari hamdabuborada o'zaroyakdil, maslak doshekanliklaridan dalolat bera

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdug'afurov A. Muhyining «suddan ham oldinroqchiqargan hukmi». // O'zbekistan adabiyotivasan'ati. - 1997. 5 sent.
2. Abdug'afurov A. Qalbqa'ridagi qadriyatlar. - T.: O'qituvchi, 1998. - 216 b.
3. Boltaboev H. Yollangan adabiyot sirlari // O'zbekiston adabiyotivasan'ati. 1998 y. 4 dek.
4. Buyuk siymolar, allomalar. K.Z.-T.: Meros, 1997. - 144 b.

5. Dehqonov A. Xudoyorxonfojeasihaqidabeshinchiqo'shiq. // O'zbektilivaadabiyoti. - 2000. - № 2. - B. 57.
6. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. - T.: SHarq, 1994. - 144 b.
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillikvataraqqiyotuchunkurash. - T.: Universitet, 1999. - 218 b.
8. Jalolov A. XIXasroxiriXXasrboshlaridagio'zbekadabiyoti. - T.: 1991. - 154 b.
9. Ziyoev H. TurkistondaRossiyatajovuzivahukmronligigaqarshikurash. - T.: SHarq, 1998. - 480 b.
10. Ibrat. Siddiqiy-Ajziy. So'fizoda. Tanlanganasarlar.-T.:Ma'naviyat, 1999.-230 b.
11. Kamiy K. Tanlanganasarlar. Dilniobodaylangiz... - T.: Ma'naviyat, 1998. - 160 b.
12. Karomatov H. Qur'onvao'zbekadabiyoti. -T.: Fan, 1993. - 96 b.
13. Marg'iloniy Muhammad Aziz. TarixiAziziy.- T.: Ma'naviyat, 1999. -112 b.
14. Sidqiy Hundayliqiy. Tanlanganasarlar. -T.: Ma'naviyat, 1998. – 304.
15. Tojiboev R. «Suddanavvalchiqarilgan hukm». G'G'Vatan. - 1996. № 12.
16. Tojiboev R. SHuaronazmidaXudoyorxontaqdiriG'G'O'zbekistanadabiyotivasan'ati. 1994. 22 apr.
17. Tojiboev R. AndijonzilzilasiQo'qonshoiralarinazmidaG'G'Adabiymeros- 1998.-№3-4.-B.68-73.
18. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslikterminlariningruscha-o'zbekchaizohlilug'ati. - T.: 1986 - 376 b.
19. O'zbekistantarixi: Turkistonchormustamlakachiligidavrida. K.1. -T.: SHark, 2000. - 464 b.
20. O'zbekistanxalqlaritarixi. 2 jildlik. J.2.-T.:Fan, 1993.- 256 b.
21. Qayumov A. She'riyatjilolari. -T.: O'qituvchi, 1997. - 128 b.
22. Hasaniy M. Yurtbo'ynidagiqilichyokiistilo. - T.: Adolat, 1997. -128 b.
23. Hojiahmedov A. Mumtozbadiiyatmalohati.- T.: SHarq, 1999. - 240 b.
24. Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. - T.: Adabiyotvasan'atnashriyoti, 1981. - 400 b.

25. YusupovSH. Furqatyo'llarida. –T.: Adabiyotvasan'at, 1984.
26. YusupovSH. Xufiyaqatlamlar. –T., 1999.
27. YusupovSH. Tarixvaadabbo'stoni. –T., 2003.
28. YunusovM. KomilXorazmiy. –T., O'zadabiynashr. 1960.
29. Jumaxo'jaNusratullo. Feruz - madaniyatvasan'athomiysi. –T.: Fan, 1995.
30. G'anixo'jaevF. AhmadTabibiy (hayotivaijodi). –T.: Fan, 1970.
31. To'laboevO., KarimbekKamiy, O'zbektilivaadabiyoti, 1993, 4-son.
32. KarimovG'.O'zbekadabiyotitarixi. 3-kitob. –T., 1975.
33. YusupovSH. XudoyorxonvaFurqat. –T.: SHarq, 1997.
34. JabborovN. FurqatmerosivaXitoymanbalari. // SHarqyulduzi. 2001. Ikkinchifasl, 121-127-betlar.
35. JabborovN. Vatanishtiyoqintortaram. // Tafakkur, 2002, 1-son, 48-57-betlar.
36. JabborovN. Ma'rifatnadir. T.: Ma'naviyat, 2010.
37. DolimovU. IshoqxonIbrat. Istiqlolfidoyilari. –T.: SHarq, 1994.
38. RizaevSH.Jadiddramasi. –T.: SHarq, 1997.
39. QosimovB. Izlay-izlaytopganim. –T.: Adabiyotvasan'at, 1983.
40. JalolovA. "XIXasroxirivaXXasrboshlaridagio'zbekadabiyoti". –T., 1991.
41. G'anievI. Fitrat. E'tiqod, Ijod. –T., 1994.
42. BoltaboevH.XIXasrningoxiriXXasrningboshlaridadramaturgiya. –T., 1993.
43. Qo'shjonovM. O'zbekningo'zligi. –T., 1994.
44. BoltaboevH. Fitratvajadidchilik. -T., 2007.
45. U. Dolimov. Turkistondajadidmaktablari. -T.: Universitet, 2006.